

SIYOSAT

ILM-U MADANIYATGA MEZBON
SAMARQAND

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 30-oktyabr kuni Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti (YUNESKO) Bosh konferensiyasi 43-sessiyasining ochilish marosimida ishtirok etdi

YUNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan Samarqand "Sharq va G'arb madaniyatlarini va sivilizatsiyalari chorrahasi" sifatida mashhur. Ushbu qadim kentning Bosh konferensiyasi o'tkaziladigan joy sifatida tanlanishi O'zbekistonning madaniy merosni asrab-avaylash borasidagi sa'y-harakatlari hamda fan, texnologiya, ta'lim va madaniyat sohasidagi xalqaro hamkorlikning jahon hamjamiyati tomonidan yuksak e'tirofi hamda mamlakatning jahon madaniy turizmi va ko'p tomonlama almashinuvdagi ahamiyatini namoyish etadi. Markaziy Osiyoning eng qadimgi va eng ko'zga ko'ringan shaharlaridan biri sifatida Samarqand o'zining ajoyib me'moriy yodgorliklari va boy tarixiy merosi bilan mashhur.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev barcha xalqaro hamkorlar

va do'stlarga 2025-yilda qadimiy Samarqand shahrida YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasini o'tkazish to'g'risidagi tarixiy qarorni qo'llab-quvvatlaganliklari uchun samimiy minnatdorlik bildirgandi. Mintaqamizda birinchi marta o'tkazilayotgan jahon miqyosidagi ushbu muhim tadbir xalqaro hamjamiyatga O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlarining ulkan sivilizatsiya salohiyatini yana bir bor namoyish etadi.

E'tiborlisi, 2024-yil 16-mart kuni O'zbekiston Prezidenti "2025-yilda Samarqand shahrida YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasiga tayyorgarlik ko'rish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonni imzoladi. Unga muvofiq, tadbirning tayyorgarligini nazorat qilish uchun Tashkiliy qo'mita tuzildi va zarur chora-tadbirlar faol ravishda amalga oshirildi. YUNESKO bilan yaqin hamkorlikda sessiya ishtirokchilarining mamlakatimizga kirishi va chiqishi, viza rejimini soddalashtirish, transport va tibbiy xizmat ko'rsatish, shuningdek, ularning

asosiy tadbirlar va madaniy dasturda ishtirok etishi bilan bog'liq masalalar hal etildi. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, 43-sessiya va u bilan bog'liq tadbirlarda 194 mamlakatdan 5000 dan ortiq ishtirokchi qatnashyapti. O'zbekiston hukumati YUNESKO bilan hamkorlikda asosiy konferensiya doirasida bir qator qo'shma tadbirlarni o'tkazishni rejalashtirgan. Ushbu tadbirlar muzey ishida sun'iy intellekt texnologiyalarining roli, gender tenglik, ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish kabi dolzarb masalalarga bag'ishlanadi. Kutilayotgan qarorlar orasida 15-dekabrni "Butunjahon turkiy tillar oilasi kuni" deb e'lon qilish tashabbusi ham bor. Forum ishtirokchilari 5 gektar maydonga ega yangi "YUNESKO bog'i" parkida daraxt ekishda ishtirok etadi. Bundan tashqari, asosiy konferensiya arafasida Samarqand shahrida YUNESKOning XIV Yoshlar forumi va YUNESKO ishlari bo'yicha milliy komissiyalarning XII mintaqalararo yig'ilishi boshlandi.

Keyingi paytlarda O'zbekistonning YUNESKO bilan hamkorligi har tomonlama rivojlanmoqda. Mazkur xalqaro tashkilot ko'magida mamlakatimizning boy tarixi, qadimiy an'analari va milliy qadriyatlarini keng targ'ib qilish, ularni kelajak avlod uchun saqlab qolishga qaratilgan qator tashabbuslar amalga oshirilayotgani, ikki tomonlama munosabatlar doirasida YUNESKOning xalqaro reyestrlari alohida o'rin tutayotganini eslatib o'tish joiz. Xususan, O'zbekistonning muvaffaqiyatli diplomatik sa'y-harakatlari tufayli mamlakatning qadimiy tarixiy-madaniy obyektlari YUNESKO ro'yxatlariga kiritilgan.

YUNESKO tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan yana bir muhim ro'yxat – Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi representativ ro'yxatidir. Ushbu ro'yxat o'zbek xalqining 16 ta nomoddiy madaniy meros elementini o'z ichiga oladi, ulardan 11 tasi 2016-yildan beri ro'yxatga kiritilgan.

(Davomi 3-sahifada.)

VATAN MANZUMASI

Sharaf

O'zbekim olam ichinda
topdi qudratdan sharaf,
O'zligin anglab jahonda
topdi jur'atdan sharaf.

Mustaqillik nurlaridan
ko'kka yuksaldi surur,
Jo'sh urib har jabhadakim
topdi mehnatdan sharaf.

Bo'ldi obod shahr-u qishloq,
kent ulug' xizmat bilan,
Yelkasiga tegdi oftob,
topdi g'ayratdan sharaf.

Do'stlig-u birlikka ziynat
berdi jumla xalq aro –
Kim etib yangi tashabbus,
topdi ibratdan sharaf.

Ehtiyojmandlarga har dam
cho'zdi yordam qo'llarin,
Haq Taolo berdi fayzin,
topdi himmatdan sharaf.

Ilm-u fan, san'atda dunyo
minbariga chiqdi xo'b,
Dovyurak ahdi bilan boz
topdi sur'atdan sharaf.

Shukrida Mahmud tun-u kun
shonli Istiqlol sabab
El-u yurtin baxti kuldi,
topdi shavkatdan sharaf.

Ismoil MAHMUD

FAKT

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev YUNESKO bosh direktori Odr Azule xonimga "Do'stlik" ordenini topshirdi.

Samarqandda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Slovakiya Prezidenti Peter Pellegrini ikki mamlakat o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini kengaytirish masalasini ko'rib chiqdi.

O'zbekiston va Serbiyaning birinchi xonimlari – Ziroat Mirziyoyeva hamda Tamara Vuchich Qibray tumanidagi reabilitatsiya markaziga ega bo'lgan "Imkon" ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasasi bilan tanishdi.

Bahraynda o'tayotgan yoshlar o'rtasidagi III Osiyo o'yinlarida O'zbekiston delegatsiyasi 30-oktyabr yakuniga ko'ra 27 ta oltin, 11 ta kumush hamda 25 ta bronza medali jamg'arib, ikkinchi o'rinda ketmoqda.

NUQTAYI NAZAR

UYG'UNLIK
EHTIYOJI

Akademik Baxtiyor Ibragimov bilan suhbat

– Assalomu alaykum, domla! Faoliyatingiz bilan tanishish jarayonida Siz tanlagan supramolekulyar kimyoning jahon ilm-fanida murakkab va yosh sohalardan biri ekaniga amin bo'ldik.

– "Supramolekulyar kimyo" atamasi birinchi marta 1978-yilda Nobel mukofoti laureati Jan-Mari Len tomonidan kiritilgan. U yangi tarmoqqa "molekulyar kuchlar ta'sirida bir-biriga bog'langan ikki yoki undan ortiq kimyoviy turlarning birlashishi natijasida yuzaga keladigan murakkab obyektlarni tavsiflovchi kimyo" deb ta'rif bergan. Oddiy qilib aytganda, bu ikki yoki undan ortiq molekula o'zaro birikib hosil qilgan yangi tizimlarni o'rganadigan fan.

(Davomi 7-sahifada.)

TURKSOY
TUHFASI

Turkiston jadidlari yo'lboshchisi Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligi munosabati bilan Anqarada TURKSOY tashkiloti homiyligida adibning "Tanlangan asarlar"i nashr etildi. O'z vaqtida, Behbudiy hazratlari Istanbulning "Gulxona parki"da Ismoil G'asprali bilan uchrashib, el-yurt istiqboli borasida suhbat qilgan bo'lsa, bugun turk tiliga o'g'irilgan kitobi orqali turkiyalik qardoshlarimiz bilan qayta yuzlashdi. Bu ma'rifiy voqeelik har ikki millat o'yinlari uchun ham quvonchli holdir. Zero, o'tgan ajdodlar adabiy merosining tilga kirishi, tarjima bo'lib

ommalashishi tarixiy haqiqatni chuqur anglashga yordam beradi. "Moziy – istiqbol tarozusi", degan gap bejiz aytilmagan, axir. TURKSOY bosh kotibi Sulton Rayev "Tanlangan asarlar"ga yozgan so'zida Turkiston jadidlari va Mahmudxo'ja Behbudiy to'g'risida quyidagi fikrlarni bayon qiladi:

"Turkiy dunyo madaniyati tarixida munosib o'ringa ega buyuk shaxslardan biri, shubhasiz, Mahmudxo'ja Behbudiydir.

(Davomi 2-sahifada.)

MUNOSABAT

MILLAT BORLIGI
VA BIRLIGI TAMALI

Yer yuzidagi har bir til, u xoh katta yo kichikdir, o'zi mansub millatning tamalini belgilaydigan, tafakkur va taxayyul tarzini, tabiiy inja tuyg'ularini salomat saqlaydigan va yugurik asrlardan asrlarga to'zg'itmay olib o'tadigan betakror qudratdir. Mamnuniyat

bilan ta'kidlash joizki, Yangi O'zbekistonimizda yuritilayotgan oqilona til siyosati tufayli o'zbek tili ana shunday o'ziga xos, benazir va mo'tabar manba sifatida muntazam tadjiriy takomil va ravnaq topib bormoqda. Yurtimizda o'zbek tilining davlat tili degan oliy rutbasiga va bu yuksak maqomning yanada mustahkamlanishiga munosib keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqdaki, ularning yorqin samaralari ko'z o'ngimizda namoyon bo'lib turibdi.

(Davomi 2-sahifada.)

ILM YO'LI

O'zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining katta ilmiy xodimi, adabiyotshunos va shoir Abdusattor JUMANAZAR:

"O'ZIMGA
YAQINLASHYAPMAN"

– Hurmatli Abdusattor aka, avvalo, sizda ilmga, ijodga rag'bat uyg'otgan oilaviy muhit haqida gapirib bersangiz. Bilaman, oilada to'qqiz farzand ulg'aygan bo'lsa, ularning besh nafari ijod bilan shug'ullanib keladi. Akangiz Yo'ldoshbek Kenjaning markaziy nashrlarda e'lon qilingan ta'sirchan maqola va esselarini ko'pchilik yaxshi biladi. Shaxsan o'zim ukangiz To'raqobil akaning romantik she'rilarini sevib o'qiyman. Yana bir ukangiz Sirojiddin ham fidoyi tarixchilardan, davra suhbatlariga g'aroyib ruh olib kiradi, yozib ham turadi. Singlingiz Risolat muallimaning kitobi, bir qancha maqolalari chop etilgan, so'nggi vaqtlarda "Vatanparvar" gazetasi va "Qalqon" jurnali bilan faol ijodiy hamkorlik qilib kelayotganidan xabarim bor. Bunda, albatta, oila – bobo-momolar, ota-ona tarbiyasi, so'ngra maktab ta'limining ta'siri bo'lsa kerak?

– Bobo-momolar, ota-ona... Har kinning umr yo'li shu insonlardan boshlanadi, deb o'ylayman. Maktabga o'qish va sal-pal yozishni ham o'rganib borganan. Bunda Bahor opamning katta xizmati bo'lgan. Opam matematika, fizika, astronomiya fanlarida ayrica iste'dodli edi, shu sohalarida havas qilguday yutuqlarga ham erishdi. Maktabda yuzlab shogirdlar tayyorladi. Bir kuni kutilmaganda uyimizdan ikki hovli naridagi pochtaxona o'rniga katta kutubxona ko'chib keldi. Pochtaxona bizni qishloqdan tashqaridagi dunyolar bilan bog'laydigan sevimli ko'rfazimiz edi. Turli gazeta-jurnallar – "G'uncha", "Gulxan", "Yoshlik", "Sharq yulduzi", "Fan va turmush", "Guliston" nashrlari, almanaxlar yoshligimizdayoq hayotimizda o'zga bir olam paydo qilgan. Chanqoq kimsadek hamisha ularga intiq edi.

(Davomi 6-sahifada.)




TURKSOY TUHFASI

Boshlanishi 1-sahifada.

U butun turkiy xalqlarning fikriy va ruhiy uygʻonishida munosib iz qoldirgan adibdir. U pedagog va noshir sifatida ham tanildi.

XX asr boshlarida shakllangan jadid harakati Sharqdagi qorongʻi zulmatni yoritishga harakat qilgan tong yulduzi sanaladi. Jadidlar maqsadi xalqni jaholatdan qutqarib, maʼrifat



va taraqqiyot yoʻliga olib chiqish edi. Bu harakatda asosiy oʻrinni egallagan Mahmudxoʻja Behbudi oʻz qalami, soʻzi, gʻoyalari, orzu-intilishlari bilan turkiy xalqlar orasida maʼrifat nurini taratishga bel bogʻladi.

Bugun Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti janob Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Mahmudxoʻja Behbudi tavalludining 150 yilligi keng nishonlanmoqda. Bu nafaqat Oʻzbekiston, balki butun turkiy xalqlar madaniy merosining qadr-qimmatini anglash va eʼzozlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev taʼkidlaganidek: “Jadid ajdodlarimizning merosi bugungi kunda Yangi Oʻzbekistonning poydevorini barpo etmoqda. Ularning fikrlari xalqimizning ozodlik va maʼrifat yoʻlidagi kurashida yoʻl koʻrsatkich boʻlib qolaveradi”.

Ulkan jadidshunos olim, professor Begali Qosimovning fikricha, jadid harakati faqat taʼlim islohoti emas, balki millatni uygʻotish, uning taraqqiysi va oʻzligini anglashi yoʻlida tashlangan jasoratli qadamlardir. Behbudi maʼrifat va milliy ozodlikka jamiyatni birlashtiruvchi eng muhim ikki tushuncha sifatida qaragan edi. Bugun turkiy dunyoning madaniy birligi va maʼnaviy yangilanishida shu ruhni his qilish mumkin.

Turkiy xalqlarning umumiy qadriyatlarini saqlab qolish, buyuk shaxslar merosini avlodlarga yetkazish va ularni kelajak uchun ilhom manbayiga aylantirish Xalqaro TURKSOY tashkilotining muhim vazifalaridan sanaladi. Mahmudxoʻja Behbudi kabi millat qahramonlarining asarlari esa turkiy xalqlar oʻrtasidagi madaniy birlik poydevorini mustahkamlab kelmoqda.

Ushbu asarni tayyorlashda koʻmak bergan Oʻzbekiston Respublikasining

madaniy muassasalariga, tadqiqotchi olimlari va turkiy xalqlar madaniy birligiga xizmat qilayotgan barcha insonlarga chin dildan minnatdorlik bildiraman”.

Yangi kitob ikki boʻlimdan tarkib topgan. “Jadid harakati va Mahmudxoʻja Behbudi” deb nomlangan birinchi boʻlimda akademik Naim Karimov, professorlar Begali Qosimov, Zaynoddin Abdirashidovning tadqiqiy maqolalari oʻrin olgan. Jadidshunos olimlar ayni harakatning mohiyati va yaqin tariximizda tutgan oʻrni haqida yozar ekan, oʻzining butun ongli ijtimoiy-adabiy faoliyatini maʼrifatga, yangilanish va millatni uygʻotishga sarf etgan Behbudi hazratlarining tarixiy xizmatlarini yuksak baholaydi, uning turli janrdagi asarlariga izohlar beradi, boshqa jadidlar ijodi bilan taqqoslaydi.

Xususan, Begali Qosimovning: “Mahmudxoʻja Behbudi oʻz davrining ijtimoiy-siyosiy harakatlarida faol qatnashgan eng yirik namoyanda, yangi zamon oʻzbek madaniyatining asoschisi edi. Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi, mustaqil jumhuriyat gʻoyasining yalovbardori, yangi maktab gʻoyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, oʻzbek dramachiligini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrochi, noshir, jurnalist edi”, degan bahosi har vaqt Behbudi kimligini eslatib turadi.

Zaynoddin Abdirashidov Behbudi faoliyatining qamrovi masalasida bunday yozadi: “Maʼrifat uchun birgina maktab kifoya qilmasdi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh boʻlmoq kerak edi. Binobarin, millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda u oʻz qabohatini ham, malohatini ham koʻra olsin. Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudi oʻz ijtimoiy faoliyatini yanada kuchaytirishga undadi. Endi u adabiy, publiksistik, noshirlik, jurnalistik yoʻnalishlarda ham keng qamrovli ishlarga qoʻl urdi”.

Turk oʻquvchilari oʻzbek jadidshunos olimlarining mana shunday asosli fikrlari vositasida Mahmudxoʻja Behbudi oʻz hayoti va ijodi, oʻlmas gʻoyalari bilan atroficha tanishadi, albatta.

Kitobning ikkinchi boʻlimidan Mahmudxoʻja Behbudi oʻzining Shuayb Qaraqosh, Vali Savash Yolok, Bahor Turkylmaz, Meryam Hamishoʻgʻli, Yasin Karadengiz, Ridvan Okul, Hamza Oʻzturkchi, Avazxon Umarov kabi tarjimonlar tomonidan oʻgʻirlangan badiiy va ilmiy-publiksistik asarlari joy olgan.

“Tanlangan asarlar” kitobini nashrga tayyorlash, adib asarlarini tarjima uchun tanlash va tarjimonlar guruhini shakllantirish kabi masʼul vazifalarni bajarishda Oʻzbekiston Respublikasining TURKSOYdagi vakili Shavkat Ortiqov, Hoji Bayram Vali universiteti professorlari Vali Savash Yolok hamda Zaynoddin Abdirashidovning xizmatlarini alohida eʼtirof etish va ularga tashakkur aytish oʻrinlidir.

Minjur kitob turkiyalik olim va tadqiqotchilar, keng kitobxonlar ommasining Mahmudxoʻja Behbudi asarlariga qiziqishi ortishi hamda qardosh millatlar maʼrifatparvarlarining faoliyatini qiyosiy-tipologik oʻrganishiga zamin yaratadi. Mujda shuki, bugun Mahmudxoʻja Behbudi boʻyicha gʻoyalari “Tanlangan asarlar” kitobi misolida oʻz sayohatini boshlab, maʼrifiy dunyo ahli tomon yoʻl olmoqda. Muborak boʻlsin!

Bahodir KARIM

MILLAT BORLIGI VA BIRLIGI TAMALI

Boshlanishi 1-sahifada.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 21-oktyabrda oʻzbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimdagi nutqida: “Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri boʻlgan oʻzbek tili xalqimiz uchun milliy oʻzligimiz va mustaqil davlat-chiligimiz timsoli, bebaho maʼnaviy boylik, buyuk qadriyatdir... Ona tilimiz milliy maʼnaviyatimizning bitmas-tuganmas bulogʻidir. Shunday ekan, unga munosib hurmat va ehtirom koʻrsatish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas insoniy burchimizdir”, deya taʼkidlagan edi.

Chindan ham, ona tilimiz milliy oʻzligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, uning ihota qoʻrgʻonidir. Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida qayd etilgan: “Har bir millatning dunyoda borligʻini koʻrsatadigan oʻyinayi hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yoʻqotmak – millatning ruhini yoʻqotmakdur”, degan hikmatli soʻzlari ham bu fikrlarni har jihatdan tasdiqlaydi. Darhaqiqat, til – millatning mavjudligi va barhayotligi, uning ichki va tashqi dunyosi asrorlari, botiniy va zohiriy olami sinoatlari, umuman, oʻtmishi, buguni va kelajagining moʻtabar shahodati, xira tortmas “oʻyinayi hayoti”dir.

Ayni paytda, til har bir millat va xalqning mutlaqo oʻziga xos tabiati va idrok tamoyillarini ham aks ettiradi. Masalan, Buyuk Britaniyaning Oʻzbekistondagi elchisi Janob Timoti Smart oʻzbek maqollari, jumladan, “Mehmon otangdan ulugʻ” maqoli oʻzbek xalqining milliy-madaniy xususiyatlarini yorqin aks ettirishini alohida taʼkidlaydi (gazeta.uz sayti. 2025-yil 21-oktyabr).

Xalqning madaniy, milliy-mental oʻziga xosliklari tilda anchayin qabariq ifodalangani. Bu badiiy matnlarda, nazmda, nasrda, xalq qoʻshiqlari va boshqa shu kabi matn tillarida yanada yorqin koʻrinadi. Mashhur faylasuf Konfutsiyning qiziq bir gapi bor: “Dunyodagi har qanday xalqning aytayotgan qoʻshigʻini keltiring, men uni eshitib, bu xalqni qanday idora etish mumkinligini aytib beraman”.

Dunyoni bilishda, uni teran anglash va anglatishda til, ayniqsa, ona tilining oʻrni beqiyosdir, chunki til tashqi dunyo idrokida asosiy va farqlovchi vazifani bajaradi. Men bu haqda oʻylaganimda, bir maqola esimga keladi. Bu ingliz jurnalisti Govard Brabning “Ona tili va miya. Yapon olimining gʻaroyib kashfiyoti” nomli maqolasi boʻlib (Kurer YUNESKO, 1982, №2), unda Tokio universitetining tibbiyot professori Tadanobu Sunodaning 15 yillik tajriba-tadqiqotlari natijalari haqida axborot berilgan.

Professor Sunoda yaponiyalik va gʻarblik (fransuz, ingliz, ispan, nemis va hokazo) odamlarni oʻz tajribasiga jalb qiladi. Tegishli zamonaviy asboblardan yordamida ularga bir paytning oʻzida inson ovozi, hayvonlar, hasharotlar tovushi, turli mexanik ovozlarni yapon va gʻarb musiqa asboblari tovushlarini eshittiradi. Shunda maʼlum boʻladiki, yapon va gʻarb kishilarining bosh miya yarim sharlarida vazifalar taqsimlanishida farq mavjud ekan. Boshqacha aytganda, yapon kishisi bosh miyasining chap yarim sharidagi markazlar bilan qabul qilgan tovushlarni gʻarb kishisi bosh miyasining oʻng yarim sharidagi markazlar bilan qabul qilgan ekan.

Tadqiqotchi bu farq etnogenetika bilan bogʻliq yoki bogʻliq emasligini aniqlash maqsadida, 20 nafar yapon muhojirining bolalari ishtirokida yana tajriba oʻtkazadi. Natija shuni koʻrsatadiki, bu farq genetik boʻlmagan, ona tili muhiti bilan bogʻliq ekan. Ana shularga asoslanib, professor Sunoda quyidagicha xulosa chiqaradi: “Men insonning oʻz atrofidagi tovushlarni qabul qilishi, oʻzlashtirishi, sezishi va tushunishini ona tili differentsiatsiya qiladi, deb hisoblayman. Ona tili miyadagi emosional (his-hayajon, kuchli tuygʻu) mexanizmining rivojlanishi bilan uzviy bogʻliq. Bolalikdan egallangan ona tili har bir etnik guruhning oʻziga xos, betakror madaniyati va ruhiy olamining shakllanishi bilan chambarchas bogʻliqdir”.

Bir til vakili boshqa tilni oʻrgansa, uning dunyoni koʻrish tarzi ham oʻzgaradimi? Ha,

toʻgʻrirogʻi, bir narsaning boshqa tomonini ham koʻra olish imkoniga ega boʻladi. Ruhi-chi, ruhi ham oʻzgaradimi? Ha, agar ona tilini unutsa, ruhi ham butunlay oʻzgaradi! Yapon olimining xulosasida ham bu hol taʼkidlangan. Yaqin oʻtmishimizda biz buning bevosita guvohi ham boʻlganmiz.

Koʻp tilni bilgan kishining, koʻrinadiki, tashqi olamni idrok etish imkonlari katta boʻladi. Fransuz maʼrifatparvari Volter shunday deydi: “Koʻp tilni bilish bitta qulfga tushadigan bir necha kalitga ega boʻlish bilan barobardir”. Demak, tillar faqat aloqa vositasi emas, balki dunyoni toʻlaroq anglash vositasi hamdir. Shuning uchun mamlakatimizda xorijiy tillarni oʻrganishga muntazam eʼtibor qaratilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oʻzbek tili bayrami munosabati bilan Oʻzbekiston xalqiga yoʻllagan tabrigida bu borada shunday fikrlar bayon qilingan: “Kelajagimiz egasi boʻlgan yosh avlodimiz zamonaviy bilimlar, innovatsiya va taraqqiyot choʻqqilarini egallashi uchun albatta chet tillarini oʻrganishi lozim. Lekin ular milliy ruh, milliy tafakkur egasi, vatanparvar insonlar boʻlib voyaga yetishlari uchun, avvalo, oʻzbek tili va adabiyotini bolalikdan boshlab puxta bilishlari shart”.

Bugun Oʻzbekistonda yurtimiz fuqarolari boʻlgan barcha millat vakillarining ona tillari rivojiga ham jiddiy eʼtibor qaratilmoqda. Davlatimiz rahbarining tabrigida taʼkidlanganidek: “Biz inklyuziv jamiyat barpo etish tamoyillarini til sohasidagi davlat siyosatimizda ham muvaffaqiyatli joriy etib, mamlakatimizda yashayotgan turli millat vakillarining ona tillarini rivojlantirishga muhim ahamiyat bermiqdamiz. Ayni vaqtda ularning davlat tilini oʻrganishlari uchun ham zarur sharoitlar yaratyapmiz. Bugungi kunda oʻzbek tili davlat tili sifatida mamlakatimizdagi barcha millat va elat vakillarini jipslashtirishga xizmat qilayotgani birgalikda olib borayotgan saʼy-harakatlarimiz natijasi, desak, toʻgʻri boʻladi”.

Oʻzbekiston Prezidentining bayram arafasida qabul qilingan “Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarorini ham



xalqimiz katta mamnuniyat bilan kutib oldi. Qaror bilan “2020–2030-yillarda oʻzbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillash-tirish konsepsiyasini 2025–2026-yillarda amalga oshirish dasturi” ham tasdiqlandi va bu boradagi ishlarning aniq tarxlari belgilab berildi.

Qarorda davlat tilini rivojlantirishga oid, jumladan, oʻzbek tilini oʻrgatish boʻyicha darsliklarning yangi avlodini yaratish, maktabgacha taʼlim tashkilotlarida oʻzbek tilini oʻrgatish boʻyicha pedagoglar uchun oʻquv qoʻllanmalari ishlab chiqish, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun “Mening ilk izohli lugʻatcham” rasmiy lugʻat kitobini yaratish, bolalarga oʻzbek tilini oʻrgatish boʻyicha zamonaviy animatsion video va audio mahsulotlar ishlab chiqish va boshqa aniq vazifalar koʻzda tutilgan.

Aytish joizki, tilning boyligi, avvalo, undagi soʻz xazinasida namoyon boʻladi. Til oʻrganuvchi uchun eng gʻaroyib, sehrlil va sir-u sinoatga limmo-lim olam – soʻz xazinasidir. Soʻzlarni, aniqrogʻi, muayyan davr soʻzlarini surati, siyrati va butun sinoati bilan salomat saqlaydigan sandiq, albatta,



Nizomiddin MAHMUDOV,
OʻzFA Oʻzbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktori,
filologiya fanlari doktori,
professor

lugʻatlar ekanini isbotlashning zarurati yoʻq. Mashhur fransuz adibi Anatol Fransning: “Lugʻat – alifbo tartibidagi butun olamdur”, degan gapi topib aytilgan. Bu muhtasham olamga endi-endi qadam qoʻyayotgan bolalar uchun odatdagi izohli lugʻatlar dunyosiga kirish, tabiiyki, qiyin vazifa. Shu bois, bolaning jajji shuuri va idrokiga moslab tayyorlangan izohli lugʻatchalar maktabgacha yoshdagilar uchun ayni muddaodir. Bunday kichik lugʻatlar bolalarning sehrlil soʻz olamiga kirishi uchun oʻziga xos pillapoya boʻlishi tayin.

Prezidentimizning tabrigida: “Raqamli olamda oʻzbek tilida sifatli, ilmiy asoslangan, qiziqarli axborot va maʼlumotlarni koʻpaytirish, xususan, global elektron ensiklopediya va platformalarni davlat tilidagi ilmiy-ommabop maqolalar bilan boyitish, onlayn lugʻatlarni takomillashtirish ham diqqatimiz markazida boʻlishi lozimligini aytib oʻtmuqchiman. Hayotimizda sunʼiy intellekt taʼsir oqib borayotgan bir paytda bu qudratli vosita yordamida ona tilimizni rivojlantirish va targʻib etish – davr talabidir”, degan fikrlar bejiz aytilmagan. Tabiiyki, bu bugungi global dunyoda gʻoyat muhim masaladir. Bu fikrlar qarorda ham ifoda topib, koʻp jildli “Oʻzbekiston milliy qomusi”ni elektron shaklda tayyorlash, til oʻrganish bilan bogʻliq raqamli mahsulotlarni yaratish vazifalari qoʻyilgan.

Shuningdek, qarorda “Ona tili. Qomus” kitobini nashrga tayyorlash va chop etish nazarda tutilgan. Qomusda ona tili bilan bogʻliq deyarli barcha maʼlumotlar ilmiy-ommabop tarzda jamlanadi. Bunday kitob tilga eʼtiborli kishilarning tasavvur va bilimlarini oshirishga, jamiyatimizda til madaniyati va maʼrifatining yanada mukammallashuviga xizmat qiladi.

Mazkur qarorda Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi yangi qabul qilina-yotgan atamalar boʻyicha jamoatchilik muhokamasida bildirilgan taklif, fikr va

“Dunyodagi eng uzoq yoʻl, bu qalbdan qalbgacha boʻlgan masofadir.”

Shams TABRIZIY





MUNOSABAT

TARIXIY TASHRIF SAMARALARI

“Jadid” gazetasi muharrirlariga yaxshi ma’lum bo’lganidek, O’zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yaqinda, 23-24-oktyabr kunlari Yevropa Ittifoqi rahbariyati bilan muzokaralar o’tkazish uchun Bryussel shahriga tashrif buyurdi. Ikki o’rtada imzolinishi rejalangan hujjatlar salmog’iga ko’ra avval-boshidanoq tarixiy deb baholangan mazkur tashrif O’zbekiston rahbarining qariyb o’n besh yildan so’ng ilk bora Yevropa Ittifoqi poytaxtiga kelishi bilan ham o’zgacha ahamiyatlidir.

Tashrif doirasida Shavkat Mirziyoyev, Yevropa Kengashi Prezidenti Antoniu Koshita va Yevropa Komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayen ishtirokida uch tomonlama uchrashuv bo’lib o’tdi. O’zbekiston va YI o’rtasida Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to’g’risidagi shartnomaning imzolinishi uchrashuvning asosiy natijasi bo’ldi. Har ikki tomonning o’zaro ishonchli umumiy manfaatlariga asoslangan qurilgan bu muhim hujjat uzoq muddatli amaliy aloqalarni rivojlantirishi va O’zbekistonning jahon hamjamiyatiga chuqurroq integratsiyalashuvi tomon jiddiy



intiliishini namoyon etishi ta’kidlandi. Ushbu yangi bitim savdo, bojxona boshqaruvi, intellektual mulk va raqobat kabi sohalarida hamkorlikni kengaytiradi, shuningdek, xavfsizlik, migratsiya, inson huquqlari kabi hozirgi davrning dolzarb muammolariga ham yechim topishga xizmat qiladi.

Shavkat Mirziyoyevning tashrif doirasida Yevropa mamlakatlarning yirik shirkatlari va moliya institutlari rahbarlari bilan o’tkazgan biznes-forum va davra suhbatlari davomida savdo, investitsiya, energetika, transport va ilmiy hamkorlik yo’nalishlarida umumiy qiymati qariyb 40 milliard yevro deb

baholanayotgan ikki tomonlama loyiha va dasturlarga qo’shimcha ravishda 10 milliard yevrodan ortiq yangi loyihalarni birgalikda amalga oshirish bo’yicha kelishuvlarga erishilgani xabar qilindi.

Tashrif davomida O’zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo’lishi yuzasidan Yevropa Ittifoqi bilan ikki tomonlama muzokaralar yakunlangani ham ma’lum qilindi.

Mintaqa tahlilchilariga ko’ra, Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to’g’risidagi shartnoma tomonlarning siyosiy muloqotlarini bir marotabalik aloqalar ko’rinishidan muntazam hamkorlik bosqichiga olib chiqib, global muammolar yechimini topishda izchillik paydo qiladi hamda turli sohalaridagi hamkorlik uchun huquqiy asos yaratadi.

Bir so’z bilan aytganda, O’zbekiston va YI munosabatlari yangi, strategik darajaga olib chiqqani ta’kidlanayotgan ushbu uchrashuv mamlakatning xalqaro miqyosda ishonchli hamkor sifatidagi mavqeyini mustahkamlayotganidan darak beradi.

Sharifjon AHMAD.
Bryussel

ADABIY DO’STLIK

Bugun Markaziy Osiyo xalqlari va turkiy davlatlar barcha sohalarida o’zaro yaqinlashishga, hamkorlikka intilmoqda. Ayniqsa, bu jarayon Yangi O’zbekiston voqeligida yuksak bosqichga ko’tarilganiga barchamiz guvohmiz. Ushbu jabhada badiiy adabiyotning ham alohida o’rni borligi, shubhasiz. Zero, adabiyot ma’naviy yaqinlikka olib boruvchi kuchli omil bo’lib, u qo’shni va qardosh xalqlar orasidagi qondoshlik rishtalarini yanada mustahkamlashi tayin.

XALQARO ADABIY FORUM

Qozog’iston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan Almati shahrida tashkil etilgan “So’z san’ati: milliy adabiyotlarning kelgusi taraqqiyoti” deb nomlangan 2-xalqaro adabiy forumda uch qardosh turkiy davlat – Qozog’iston, O’zbekiston va Qirg’iz Respublikasining yozuvchi va adabiyotshunoslari ishtirok etdi. Darvoqe, Qozog’iston Yozuvchilar uyushmasining bosh qarorgohi Almati shahrida bo’lib, poytaxt Astanadagi tashkilot uyushmaning filiali ekanki, bu ham Almatining mamlakat ma’naviy hayotidagi yuksak mavqeyidan dalolatdir.

Anjuman boshlanishidan oldin qozoq adiblariga bag’ishlangan “So’z zargarlari” kitobi taqdimoti va davra stoli (qozoqcha “Do’ngelik ustel”) atrofida mehmon va mezbonlar orasida tanishuv – dilkash suhbat bo’lib o’tdi. Men qozoqning taniqli oqsoqollari O’ljas Sulaymonov va Murat Avezov (Muxtor Avezovning o’g’li, yirik faylasuf) haqida so’radim. O’ljas og’ani biroz betob deydishi. Murat og’a besh yilcha oldin qaytish qilgan ekan, ta’ziyamni bildirdim. So’ng bundan o’n yilcha muqaddam O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasida u kishi bilan uchrashganimiz, oqsoqoldan qozoqning ikki dahosi haqidagi: “Abayni Abay etken Muxtar, Muxtarni Muxtar etken Abay”, degan hikmatni eshitganimni aytganimda, mezbonlar avvala eshitmaganlarini yoki mehmondan tinglayotganlari uchunmi, g’oyat mutaassir bo’lishdi.

Anjumanni Qozog’iston Yozuvchilar uyushmasi boshqaruvi raisi Mereke Kulkenov kirish so’zi bilan ochib, mustaqillik davrida turkiy xalqlar adabiyotlari, jumladan, uch davlat yozuvchilari o’rtasidagi adabiy aloqalar sustlashib qolgan, endilikda bu aloqalarni yangi bosqichga ko’tarish zarurligi haqida gapirdi. So’ng Qozog’iston Respublikasi Madaniyat va axborot ministri Aida G’alimqizi Balayeva hamda Almati shahar hokimining tabrik so’zlari o’qib eshittirildi.

Qirg’iz Respublikasi xalq oqini Qojageldi Kultegin “Hozirgi qirg’iz–qozoq adabiyoti aloqalari”, taniqli munaqqid va yozuvchi Bag’ashar Tursunbayuli “Adabiyotning bugungi yo’nalish va maqsadlari” mavzularida ma’ruza qilishdi. Men “Adabiy tanqid. Adabiyot va iymon” mavzusida chiqish qildim. Navbatdagi ma’ruza Avezov nomidagi Adabiyot va san’at institutining yetakchi ilmiy xodimi Aynur Ahmatova tomonidan taqdim etilib, unda “Zamonaviy qozoq, o’zbek, qirg’iz adabiy matnlari: turkchilik va Turkiston talqini” asosida uch xalq adabiyotidagi g’oya qiyosiy aspektda tahlil qilindi. Tahlil jarayonida o’zbek adabiyotidan Tog’ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” va Isajon Sultonning “Bilga hoqon” romanlari ham tadqiq etilidiki, shunda ushbu dolzarb g’oya barcha turkiy xalq va davlatlar uchun mustahkam ekanligi o’z ilmiy tasdiq’ini topdi, deyishimiz mumkin.

“Hozirgi qozoq hikoyachiligi” deb nomlangan ma’ruza filologiya fanlari doktori, professor Gavhar Boltaboyevaga tegishli bo’lib, unda men uchun yangilik bo’lgan bir jihat – yangi qozoq adabiyoti qamrov doirasida mistikali proza, virtuali proza kabi janr turlari

paydo bo’lgani va ayni paytda bu mutlaq yangilik bo’lmay, bunday asarlar XX asr boshlarida qalam tebratgan mashhur qozoq adibi Shokarim Xudoyberdiuli ijodida mavjud ekani aniq misollar yordamida ochib berildi. Shunda men jadid adabiyotimiz, xususan, Fitratning “Qiyomat”, Hamzaning “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” asarlarida, qator jadid dramalarida (Shuhrat Rizayevning “Jadid dramasi” kitobiga qarang) mistik unsurlar ko’plab uchraganini yodga oldim. XX asr boshlaridagi Turkistonda adabiy jarayon yaxlit va mushtarak holda kechganiga yana bir isbot-dalil – bu.

Qirg’iz Respublikasi davlat mukofoti sovrindori Qodirbek Segizboyuli, Qozog’istonning taniqli yozuvchisi Jusipbek Qorg’abek, taniqli shoir, Xalqaro “Alash” adabiy mukofoti sovrindori Yerlan Junis, Qirg’iz Respublikasining “Jetege” jurnali bosh muharriri Abdilamit Jumatov, qozoq adibi, “Tongsholpan” jurnali bosh muharriri Nurlibek Safin chiqishlari ham anjuman ishtirokchilarida katta qiziqish uyg’otdi.

Almati shahar markazlashgan kutubxonalar tuzilmasi direktori o’rinbosari Baxtiyamol Ospanova shahardagi kutubxonalar faoliyati haqida qiziqarli ma’lumotlar keltirdi. Masalan, ushbu forum o’tayotgan kutubxona kecha-yu kunduz, ya’ni 24 soat ishlashi va kitobxonlar uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgani hamda shu kunlarda shaharda 28 ta kutubxona mavjud bo’lib, yana 3 ta kutubxona qurilayotgani haqidagi ma’lumot hammada mamnuniyat uyg’otdi. Zero, kutubxona hamisha ilm va odob tarqatuvchi ziyo maskani ekani isbot talab qilmas haqiqatdir.

Yana bir chiqishda “ruhoniy tavsilizlik” (ular mustaqillikni shunday atashar ekan) haqida gapirildiki, bu bizning buyuk Cho’lpon yozgan: “Ko’ngil, sen bunchalar nega Kishanlar birla do’stlashding?”, ya’ni ruhiy kishanlarni ulotirish haqidagi g’oyaga ajib mos keladi.

U yana bir muhim ma’lumotni aytdi. Ma’lumki, Turkiston jadidlarining sa’y-harakati bilan mintaqada chor bosqinidan keyingi ilk davlat, Qo’qon shahrida tuzilgan Turkiston Muxtoriyatida o’zbek, qozoq, qirg’iz, turkman, tojik xalq vakillari bo’lgan, shunga qaramay, delegatlar yagona turkiy tilda gaplashib, birlarini juda yaxshi tushunishgan. Hozir esa bir-birimizni chala anglaydigan bo’lib qoldik. O’sha birlikni qayta tiklashimiz uchun yanada yaqinlashimiz zarur, dedi Didar Ko’menov.

Aytganday, Almatida ikki noyob kitob – bir qozoq yozma adabiyoti asoschisi Abayning asliyatdagi ikki jildli to’la asarlar to’plami (Almati, “Jazushi”, 2013) hamda olama mashhur yapon buddashunos D.T.Sudzukuning ingliz tilidan o’g’irilgan “Дзен и японская культура” (СПб. “Hayka”, 2003) nomli noyob asarlarini xarid qildim. Shaxsiy kutubxonam ikki nodir kitob bilan boyidi. Men buni ham xalqaro adabiy anjumanning sharofati deb bildim.

Suvon MELI,
filologiya fanlari doktori,
professor

ILM-U MADANIYATGA MEZBON SAMARQAND

Boshlanishi 1-sahifada.

Ularga Shashmaqom, Boysunning madaniy an’analari, Katta Ashula, Askiya san’ati, palov bilan bog’liq madaniyat va an’analar, Navro’zni nishonlash odatlari, Marg’ilon hunarmandchilikni rivojlantirish markazi, atlas va adras ishlab chiqarishning an’anaviy texnologiyalarini saqlash, Lazgi raqsi, miniatyura san’ati, baxshichilik san’ati, ipakchilik va an’anaviy ipak ishlab chiqarish, Xo’ja Nasriddin haqidagi an’anaviy rivoyatlar, o’zbek kulolchilik san’ati, naqqoshlik san’ati, iftorlik va uning ijtimoiy-madaniy an’analari, shuningdek, rubob yasash va uni chalish san’ati kiradi.

2023-yilgacha O’zbekiston YUNESKO-ni “Dunyo xotirasi” reyestriga bir nechta muhim madaniy meros obyektlarini muvaffaqiyatli kiritdi, jumladan, Toshkent shahrida saqlanayotgan Usmon Qur’oni, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo’lyozmalar to’plami va Xiva xonligi devonxonasi arxiv hujjatlari. 2023-2024-yillar davomida O’zbekiston tarixiga oid yana to’rtta hujjatli to’plam ushbu nufuzli reyestriga kiritildi: Mavlono to’plami, Buxoro amirligi qushbegi ma’muriyati arxivi, Xudoybergan Devonov fotosuratlar to’plami va “Turkiston albomi”. YUNESKOning yana bir muhim yo’nalishi – Butunjahon biosfera rezervatlari tarmog’i bo’lib, unga hozirda O’zbekistondan ikkita obyekt kiradi: Chotqol davlat biosfera qo’riqxonasi (1978-yilda tashkil etilgan) va Quy Amudaryo davlat biosfera rezervati (2021-yilda qo’shilgan). 2022-yilda O’zbekiston o’z tarixida birinchi marta 2022–2026-yillar davrida YUNESKOning Nomoddiy madaniy merosni



TARIXDAN SADO

Jadidlar millatni uyg'otish va unga o'zligini anglatish uchun turli yo'l va vositalar qidirgan. Shu ezgu maqsadda gazeta va jurnallar chiqargan. Maktab va teatrlar ochgan. Yoshlarni xorijiy mamlakatlar, xususan, Yevropa davlatlarida o'qishga yuborish choralarini ko'rgan.



“Guliston” jurnali jamoasi. 1970-yillar.

Jadid bobolarimiz chiqargan gazeta-jurnallar orasida “Yer yuzi” jurnali alohida o'rin tutadi. Mazkur jurnal haqida jurnalist va dramaturg Ziyov Said “O'zbek vaqtli matbuoti tarixiga oid materiallar” kitobida shunday yozgan: “Matbuotning har bir sohasida nashriyotga ehtiyoj ortdi. 1925-yilning oxirlari va 1926-yilning boshlarida bu havas qolipga quyilgan-dek pishiq tus oldi. Kundalik gazetalar va qalin jurnallardan tashqari, dunyo voqealarini, ilmiy, siyosiy, ijtimoiy va jiddiy hodisalarni ko'zga gavalantirib berguvchi ruslarning “Огонёк” jurnalidek populyar jurnalga ehtiyoj tug'ilganligi sezildi. “Qizil O'zbekiston” gazeta idorasi bu ehtiyojni qoplashni o'ylab “Yer yuzi”ni chiqarmoqqa qaror qildi. “Yer yuzi” o'zining birinchi soni bilanoq o'quvchilar orasida kutilganidan ortiq husni tavajjuh qozondi. Juda tez fursatda o'z o'quvchilarini topdi. “Yer yuzi” o'z ta'sisidan boshlab hali tegilmagan mahalliy mavzularga tegmoqqa boshladi. Uning eng farq etiladigan afzal nuqtasi ham shudir. Atrofda professional muxbirlar va jurnalistlarning yo'qligiga qaramasdan bu kursda birmuncha muvaffaqiyat qozondi”.

Xalqimizning ardoqli shoiri Abdulhamid Cho'ipon “Yer yuzi” jurnali chiqqa boshlagani munosabati bilan “Bu nima narsa?” degan she'r yozgan. “Yer yuzi” jurnalining maqsad-mohiyatini ochib beruvchi mazkur she'r jurnalning 1-sonida e'lon qilingan.

**Bu nima narsa, deb
Har kim so'rasa,
Deyman “Yer yuzi”.
Har yerda yurar,
Har joyni ko'rar,
Har kimni toblar,
“Fotoxon” qizi!**

Arab alifbosida nashr qilingan “Yer yuzi” jurnalining birinchi soni 1925-yil 7-noyabrda chiqqan va 1931-yil dekabrgha qariyotgan faoliyat ko'rsatgan. Ijtimoiy-siyosiy jarayon va o'sha davr taqozosiga ko'ra jurnal nomi bir necha marta o'zgargan. 1932-yildan lotin alifbosida “O'zbekiston qurilishda”, 1934-yil sentyabrdan “Mash'ala”, 1935-yil fevraldan esa “Guliston” nomi bilan chiqqan.

Mana shu misol va faktlardan ayon bo'ladi, bugungi “Guliston” jurnali o'sha “Yer yuzi”, “O'zbekiston qurilishda”, “Mash'ala” jurnallarining vorisi hisoblanadi. (Muayyan nashrning nomini o'zgartirish tajribasi amalda bor. Masalan, “Ishtirokiyun” – “Qizil O'zbekiston” – “Sovet O'zbekistoni” – “O'zbekiston ovozi”.)

“Yer yuzi” ijtimoiy, siyosiy, adabiy va ommabop jurnal bo'lib, 15 kunda bir marta chiqqan. U katta formatda va ko'p suratlar bilan chiqarilgan. Jurnal o'z nomiga munosib tarzda mamlakatimizda XX asrning 20-yillarida sodir bo'lgan voqea-hodisalarni aks ettirgan, o'zga yurtlardagi el-u elatlar hayotidan hikoya qilgan hamda jahon xalqlari tomonidan yaratilgan badiiy asarlar bilan xalqimizni tanishtirib borgan. Shuning uchun “Yer yuzi” omma orasida tez tarqalgan. Jurnal sahifalarini varaqlar ekanimiz, go'yo yaqin o'tmishga sayohat qilgandek, o'tgan asr boshlaridagi voqealar ko'z o'ngimizda yaqqol jonlanib, o'sha davr nafasini tuygandek bo'lamiz.

Jurnalda turli yillarda Komil Aliyev, Mannon Ramz, A'zam Ayyub, Saidg'ani Valiyev, Botu, Elbek, Qosim Sorokin, Shokir Sulaymon, Sobira Xoldorova va boshqa ijodkorlar mehnat qilgan. “Yer yuzi”ning adodlari 1925-yilda 4 ming donadan boshlanib, 1928-yilda 10 ming 200 donagacha yetgan.

Jurnal sahifalarida yer islohotiga bag'ishlangan maqola va suratlar, tarixiy, ilmiy va boshqa mavzularga oid maqolalar, chet el adabiyotidan qilingan tarjimalar, she'r va hikoyalar, tarixiy shaxslarning suratlar va tarjimaiy hollari hamda e'lon va bildirishlar chop etilgan.

Jurnalda badiiy asarlar ham chop etilib, uning ommalashishiga sabab bo'lgan.

“Yer yuzi” jurnali hikoya va tarjimachilikni yuksaltirishga ham katta hissa qo'shgan. Bir qancha ijodkorlarning hikoyalari va tarjima asarlari nashr qilingan. Ziyov Said yuqorida zikr etilgan risolasida bu xususda quyidagilarni yozgan: “Hikoyanavislik va she'r to'g'risida ham “Yer yuzi”ning xizmati qayrilib boqishni taqozo qiladi. “Yer yuzi”ning hikoya bosishi o'quvchilarda hikoyanavislik havasini o'rtirdi”.

Jurnalning 1925-yilgi sonlarida “Jahon adabiyoti” rukni ostida Rabindranat Thakur, Yaroslav Gashek, Fridrix Shiller, Aleksandr Pushkin, Lev Tolstoy, Mulk Raj Anand katta maqolalar va ularning asarlaridan tarjimalar berilgan.

Ma'lumki, 20-yillarning oxirlarida o'lka-mizda arab alifbosi asosidagi o'zbek yozuvi lotin alifbosi bilan almashtiriladi. Shu sababli, “Yer yuzi” jurnalining 1929-1930-yilgi sonlaridagi ayrim sahifalar, 1931-yilgi sonlarining barchasi lotin alifbosida nashr qilingan.

Jurnal faoliyati hamma vaqt ham ravan, silliq kechmagan, hayotda yuz bergan nohaqliklar, tazyiqlar, qatag'onlar o'z ta'sirini ko'rsatgan. Biroq har qanday vaziyatda ham jurnal davr ko'zgusi vazifasini bajarib kelgan. Xususan, jurnal faoliyati 1931-yilning yozida bir muddat to'xtatilib, sovet hokimiyati tahririyatda faoliyat ko'rsatayotgan betakror qalam sohiblarini tanqid qilishga, “xalq dushmani” deb tahqirlash va jismonan yo'q qilishga o'tadi. Jurnalga rahbarlik qilib turgan hay'at a'zolari A'zam Ayyub, Sanjar Siddiq, Komil Aliyev, Saidg'ani Valiyev faoliyatini zimdan kuzatish kuchaytiriladi.

1932-yildan boshlab jurnal “O'zbekiston qurilishda” degan yangi nomda chop etiladi. Bu haqda “Yer yuzi” jurnalining 1931-yil 17-18-sonlarida quyidagicha ma'lumot berilgan: “1932-yildan “Yer yuzi” jurnalining o'rniga “O'zbekiston qurilishda” degan yangi jurnal chiqqa boshlaydi. “O'zbekiston qurilishda” keng formatda, yaxshi qog'ozda, turli-tuman nafis tola materiallari bilan bezalib, hajmi ikki yarim taboq bo'ladi”.

Nihoyat, 1935-yil fevral oyidan jurnal “Guliston” nomida chiqqa boshlagan. Jurnalga Rahmat Majidiy (1935-yil fevral-sentyabr), Anqaboy (1935-yil oktyabr – 1936-yil aprel), Kamol Sharipov (1936-yil may – 1936-yil dekabr), Qodir Abdullayev (1938-yil yanvar-fevral), Nasrulla Oxundiy (1938-yil mart), Vohid Zohidov (1938-yil aprel – 1939-yil dekabr) muharrirlik qilgan.

Jurnalning 1938-1939-yillarda chiqqan sonlarida ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiyning adabiy merosini targ'ib qilishga katta ahamiyat berilgan. Jurnalning 1938-yil avgust-sentyabr oylarida chiqqan 8-9-sonlarining asosiy qismi Alisher Navoiyga bag'ishlangan.

Jurnal madaniyat va ma'rifat tarqatishda katta xizmat qilgan. Millat va uning haququqi, tarixi, til va adabiyot masalalariga doir o'quvchilar uchun ko'plab axborot beradigan va ularni qiziqitiradigan materiallar, bahs-munozaralar yoritib borilgan. Komil Aliyev, A'zam Ayyub, Sanjar Siddiq, Said G'ani kabi ijodkorlarning madaniy-ma'rifiy mavzudagi publitsistik

Jadidlardan “GULISTON”

maqolalari nashr qilingan. Bu maqolalar o'zbek publitsistikasi rivojiga keng yo'l ochgan, deyish mumkin.

“Guliston” jurnali Ikkinchi Jahon urushiga qadar nihoyatda og'ir ijtimoiy-siyosiy kurashlar, iqtisodiy qiyinchiliklar jarayonida faoliyat ko'rsatgan. Oqibatda, ma'lum sabablarga ko'ra, jurnal uzoq muddat nashr qilinmagan va 1967-yilning yanvariga kelib, yana chiqqa boshlagan. Bu xayrli ishning tashabbuskori o'sha yillarda O'zbekiston rahbari bo'lgan atoqli davlat va jamoat arbobi, adib Sharof Rashidov edi.

Yozuvchi Ibrohim Rahim bosh muharrir-ligida dastlab 50 ming nusxada chop etilgan ushbu oylik ijtimoiy-siyosiy, adabiy-badiiy, bezakli jurnal birinchi sonidanoq tilga tushadi va oradan bir yil o'tib, 1968-yildagi birinchi soni 160 ming nusxada chiqadi. Jurnal mutlaqo yangicha ko'rinish-dizaynda, ya'ni sahifalar did bilan joylashtirilgan, zarvaraqalar fotokollaj qilingan, muqova ham nafis bezatilgan holda nashr etilgan edi. Eng muhimi, maqolalarning mag'zi to'q, dolzarb, tahlil va tanqid ruhi baland bo'lib, jurnalxon ma'rifatini ko'tarishga, bilim-saviyasini boyitishga qaratilgan bilan ahamiyatlidir. Jurnal o'zbek tilining fasohatini, ohangdorligi va betakrorligini ko'rsatish va targ'ib qilishni asosiy maqsad qilib olgan bilan ham el orasida shuhrat qozonadi.

Asl ijodkorlar o'z davridan ilgari yuradi, degan gap bor. Ma'rifatga tashna qalblar “Guliston”ni qidirib, talashib-tortishib o'qigan. Jurnal ommaga tildan, tarixdan, madaniyat va ma'rifadan, adabiyot va san'atdan, tabiat va qishloq xo'jaligidan, falsafa va huquqdan, jamiyatshunoslik va axloqshunoslikdan, qo'yingki, inson kamolotiga nimaiki taalluqli bo'lsa, baridan beminnat saboq bergan.

Jurnalda tariximizga doir mashhur asarlar bosila boshlangan. Ular orasida “Temur tuzuklari” alohida o'rin tutadi. Bu asarning “Guliston”da chiqishi O'zbekistonning 60-70-yillardagi ma'rifiy hayotida katta voqea va shov-shuvga sabab bo'ladi.

Yozuvchi Shukur Xolmirzayev xotiralari-

“Tasavvur eting, 67-68-yillar! “Temur

tuzuklari”ni bosish uchun qanaqa yurak kerak... Bosh muharrirga? “Temur tuzuklari” daragini eshitgan Ibrohim aka o'zida yo'q shod bo'lib: “Bu – boshqa gap! Rustamjon, ishga kirishing!” dedilar. Rustam akam har kuni piyodalab Alixonto'ra Sog'uniy hazratlarining uylariga boradi, deng. Uch-to'rt soatdan keyin peshana va burunlari terlab qaytib keladilar, mening stolimga “Temur tuzuklari”ning forsiydan o'zbekchaga hazrat tarafidan ag'darilgan boblarini qo'yadilar. Biz birpasda o'qib chiqib, ko'zlarimizga surtib, bosmaxonaga jo'natish payida bo'lamiz”.

Shu tarzda ushbu noyob asar ilk bor “Guliston” jurnalida bosiladi. Afsuski, oxirigacha chiqmaydi, to'xtatiladi.

“Guliston”ning tili nihoyatda xalqchil bo'lgan. Jurnal taxamlarini varaqlab, maqolalarda ishlatilgan so'z va iboralarini ko'rib, tahririyat xodimlari ona tilimizni qanchalar sevgani, uning bor go'zalligi-yu ohorini saqlash yo'lida fidoyilik ko'rsatganini sezasiz. Davlatchiligimizning qadimgi davrlari, millatimizning buyuk siymolari, qadimgi qo'lyozma manbalar, adabiy yodgorliklar, XX asr boshlarida o'tgan ma'rifatparvarlar faoliyati faxr-u iftixor bilan yozilgan, targ'ib qilingan.

Ibrohim Rahimdan so'ng, O'zbekiston xalq yozuvchisi Asqad Muxtor bosh muharrir etib tayinlangan. Donishmand adib va tajribali muharrir Asqad Muxtor “Guliston”ning mavqeyini yanada oshirish va o'quvchilar mehrini qozonish yo'lida ko'p mehnat qilgan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Asqad Muxtor muharrirlik qilgan yillar (1969–1981) “Guliston” jurnali tarixiga eng nurli, ma'rifatli, jasoratli davr bo'lib kirgan. Binobarin, o'sha yillarda jurnal ko'lma-qo'l o'qilar, mushtariylar jurnalning navbatdagi sonini intiqib kutardi.

“Guliston”da uzoq yillar turli lavozimlarda ishlagan O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Sher ustoz Asqad Muxtor va “Guliston” jurnali haqidagi xotiralarda quyidagilarni yozgan: “Asqad aka millatni uyg'otishni, xalqda milliy fu'urur va ozodlikka intilish tuyg'usini tarbiyalashni bosh vazifasi, deb bilardi. Lekin bu haqda gapirmasdi. Faqat bir martagina “Biz juda katta savob ish qilyapmiz”, degani esimda.

Darhaqiqat, “Guliston” jurnali Asqad aka rahbarligida tom ma'nodagi milliy jurnalga aylangan edi”.

Jurnalning o'sha y



TALQIN

Qodir baxshining bir terminasida shunday gap bor:

Maqtay-maqtay qoʻrqogʻini mard qilgʻan,
Turta-turta eshagini ot qilgʻan,
Chertabersam el koʻnglini shod qilgʻan,
Mayin tordan noz chiqargʻan, doʻmbiram.
Bu termada doʻmbira adabiyot timsolida keladi. Adabiyotning turta-turta, niqtay-niqtay, tergay-tergay, xinalab-xinalab, eshagini ot qilishi, maqtay-maqtay, alqab-alqab, yoʻlga solib, kuch berib, qoʻrqogʻini mard qilishi bor gap. Yaʼni, adabiyot tarbiyalaydi, tuzatadi, yoʻlga soladi, kuch-ragʻbat beradi. Shu bois baʼzi mashhur Gʻarb adiblarining adabiyot tarbiya vositasi emas, degan gaplari shartli va nisbiydir. Baribir, tafakkur va tuygʻu parvarishi adabiyot bilan bogʻliq boʻlib qolaveradi.

Urush yillari haqida qisqa metrajli bir filmni koʻrdim. Voqea bunday. Oʻrmonda yuk mashinasi ustida kelayotgan musiqachi askarlarni pistirmada turgan fashistlar oʻqqa tutib oʻldirishadi. Nemislar endi ketamiz deb turishganda, mashina ustidan garmonning “gʻiiyq” etgan ovozi eshitilib qoladi. Avtomatlarini oʻnglab bortni tekshirgan fashistlar bitta musiqachining omon qolganini koʻrishadi va uni mashinadan tushirishadi. Musiqachi qoʻrqanidan ishtonini hoʻl qilib qoʻygandi. U zirzir titraydi, terga tushib, qaltiraydi. Fashistlar uni istaganicha haqoratlashadi, masxara qilishadi, qoʻrqitishadi. Musiqachi askar esa titrab-qaltirab, qulday mute turaveradi. Soʻng fashistlar uni qoʻshiq aytishga majburlashadi. U garmonini zoʻrgʻa chalib, ovozi titrab, qoʻshiq boshlaydi. Qoʻshiq vatan haqida, yurt himoyasi, mardlik haqida edi. Asta-asta qoʻrqoq musiqachida kuch va jasorat paydo boʻla boshlaydi. U kuylayotganda vatanini, ota-onasi, opa-singillari, aka-ukalarini, unib-oʻsgan tuprogʻini his etib, koʻzlarida oʻt chaqnaydi va yoʻlbarsga aylanadi. Soʻng bir sakrab, yerda yotgan qurolni olib, hujumga oʻtadi va bir toʻda fashistlarni bir oʻzi yengadi.

Men filmning voqeasini sizga eplab aytib berolmagandirman. Uni koʻrish kerak. Dushman oldida qoʻrquvdan ishtonini hoʻllab qoʻygʻan bir zaif odamning bir necha daqiqada qanday qilib mardga aylanishi ishonchli, jonli tasvirlangan. Bu quruq pafos, soxta qahramon yasash havasidagi haybarakallachilik emasdi. Rejissyor kichik bir lavhada adabiyot va sanʼatning mohiyati, kuchini koʻrsatib bergan.

Qodir baxshining “Maqtay-maqtay qoʻrqogʻini mard qilgʻan, Turta-turta eshagini ot qilgʻan”

O‘Q ILDIZ SIRLARI



degan satrlarida adabiyot va sanʼatning muhim vazifalaridan biri, elning tarbiyadagi oʻziga xos nozik donishmandligi baxshiyona ifoda qilingan. Yana bir jihatga eʼtibor qilish kerak, bu gapda “maqtay-maqtay” soʻzlari bilan birga “turta-turta” soʻzlari yonma-yon keladi. Bu usulda alqash barobarida tanbeh, koyish, kerak boʻlsa, “qulogʻini choʻzib qoʻyish” ham nazarda tutilgan.

Bir maqolimiz bor: “Boʻladigan el bir-birini botirim deydi”. Kuchsizroq, qoʻrqoqroq odamni botirsan, sen kuchlisan deb uqtiraversangiz, u oʻzgarib boradi, shunga oʻzida ragʻbat sezadi. Bu ham tarbiyadagi bir vosita. Agar botirni hadeb qoʻrqoqsan, noʻnoqsan, zaifsan, ahmoqsan deyaversangiz, unda shu illatlar paydo boʻla

boshlaydi. Zero, odam taʼsirchan, beriluvchan, “ojiz banda” degan ibora uning manglayiga bekorga tamgʻalanmagan. Maqollarimizda gap koʻp. Aslida, adabiyot matal va maqollardan boshlanadi. Qodir baxshi yana bir nashrida: “Dostonning bosh qahramonini zaif qilib koʻrsatma, agar qahramoning zaif boʻlsa, eshituvchilar esnay boshlaydi”, degan.

Xalq dostonlarida nega bosh qahramonlarga bunchalik urgʻu berishgan? Nega bu darajada mubolagʻalar qilishgan?

Millatni koʻtarish uchun kerak edi bu! Xalq qalbidan otilib chiqqan baxshilar xalq qalbi nimaga muhtoj ekanini yaxshi bilishgan. Maydonga kirib kelayotgan avlodlar koʻngliga olov tashlash uchun Alpomish, Goʻroʻgʻli kabi botirlar kerak edi. Bu qahramonlar nafaqat jismonan, shu bilan birga, maʼnan kuchli mardlar edilar. Millat bolalari lattachaynar, muloyimxunuk, na issigʻi, na sovugʻi bor oʻlik qahramonlar taʼsirida emas, matonatli, jasoratli tirik qahramonlar taʼsirida ulgʻayib, shulardan ulgi olishi kerak edi. Xalq yosh koʻngillarga gʻayrat, shijoat beradigan manbalar ijodkori boʻlgan. Bu narsa xalqning ertak va dostonlarida ayon koʻrinib turadi. Bu degani baqiroq, chironqʻich, tumshugʻini tiqmagʻan joyi yoʻq, tili ikki qarich mahmadanalarni, shirpilqoq “delovoylar”ni qahramon qilib koʻrsatish degani emas. Bu degani pufak pafoslardan yasalgan koʻpikka odamlarni choʻmlitirib tashlash degani emas. Bu degani qalbni uygʻotish deganidir. Qalb uygʻondimi, iroda ham, or-nomus ham, mardlik va jasorat ham uygʻonadi. Qalbi uygʻongan odam xalqning dardini, armonlarini his etadi. Chunki hamma chashmalar qalbda yashirigan.

“Kuntugʻmish” dostonida shunday tasvir bor: “Xolbeka bilan Kuntugʻmish koʻshkdan oʻzlarini

tashlashganda ikkovining ham koʻylagiga shamol kirib, misli qanotday boʻlib, beozor, sogʻ-salomat yerga tushdi”. Bu qahramonlar shamoldan qanot, oynadan koʻl, taroqdan changalzor yasay olardi. Bularni hayot emas, shunchaki choʻpchak, hayotda boshqacha boʻladi, dersi? Yoʻq, bular choʻpchak emas, balki inson irodasini, uning tiynatiga yashirigan salohiyatni ramzlarda ifodalashdir. Ular “Yomonlarning qoʻlida oʻlgandan koʻra, Xudoning yoʻlida oʻlsam boʻlmasmi?”, “Haq saqlasa, balo yoʻq, Haq qargʻasa davo yoʻq” deb, ming eshik yopiq boʻlsa, ming bir ochiq eshikni topa olganlar.

Ertak va dostonlardagi qahramonlarga yaxshi, ular qanday boʻlmasin murodiga yetadi, lekin hayot ertak emas, degan gap koʻnglingizdan oʻtayotganini sezib turibman. Shunday ham deylik. Lekin dostonlarning qahramonlari ham ne-ne mashaqqatlarni, ne-ne kurashlarni boshdan kechiradi, oʻtlarda toblanadi, necha oʻlib, necha tiriladi, ularga gʻalaba bayrogʻi shunchaki choyxonada yonboshlab yotib, oshxoʻrlik qilgani uchun berib qoʻyilmaydi.

Sobiq mustabid tuzum davrida “sotsialistik realizm” yorligʻi ostidagi metod adabiyotning asl manbasi – dostonlardan xalqni ancha uzoqlashtirib yubordi. Avvalo, bu uslubda ham, garchi kam boʻlsa-da, yaratilgan yaxshi asarlar borligini eʼtirof etish kerak (Bu alohida mavzu). Albatta, oʻn besh mamlakatdan chiqqan hamma adiblarni bir “metod” qozoniga tiqib qaynatish adabiyotni boʻgʻib qoʻyishdan boshqa narsa emasdi. Har kim oʻziga yoqqan uslubda ijod qilavermaydimi? “Realizm”ga koʻnsa boʻlar, lekin unga “sotsialistik” sifatini yopishtirib qoʻyishga balo bormidi? Sotsialistik realizm metodida xalq dostonlarini yaratishni bir tasavvur qilib koʻring.

Buning ustiga, bu davrda baqiroq, soxta gʻoya xoʻrandalarini, hatto otasini Lenin yo Stalinga almashtirib yuboradigan partiya qularini qahramon qilib koʻrsatish avjga chiqdi. Qizil imperiya qatagʻonlari, sovet mafkurasi zindonband vatanlar va zanjirband xalqlarni qattiq zabtiga olgan vaqtlarda adabiyotda tom-tom yolgʻon kitoblar toʻqildi. Bu soxta kitoblar ichidagi ming-minglab partiya, Lenin, Marks, sotsializm, kommunizm haqidagi qofiyaboz olqishlar, bazmiy nazmlar-u qosir nasrlar qalashib yotardi. Endi qarasangiz, bu shەرʼlar mustabid matkura



Eshqobil SHUKUR

maydonlarida qalashib yotgan son-sanoqsiz sotqinlarning jasadlariga oʻxshab koʻrinadi. Bu kitoblarni qabrston deb boʻlmas, balki koʻmilmasdan qolib ketgan oʻliklar uyumi desa boʻladi. Xunuk manzara. Odamlarning xoinlari boʻlgani kabi kitoblarning ham xoinlari boʻladi. Tasavvur qiling, butun umrini, hayotini, KPSS tarixi, leninizm, marksizmga bagʻishlagan va bu haqda tom-tom kitoblar yozgan qancha “olimlar”, “professorlar” boʻlgan. Buning oʻzi katta baxtsizlik – butun umr sarboga, oʻlik gʻoyaga, koʻmilmay qolgan muddaga topinib yashash emasmi?

1991-yildan soʻng ularning baʼzilari birdan “mustaqillikchi” boʻlib qolishdi. Sotsializm, kommunizm, Lenin soʻzlarning oʻrnini mustaqillik, istiqlol nomi bilan almashlab, safsatabozliklarini davom ettirishdi. Lekin shunday dahshatli suronlar ham dostonlardagi qahramonlarni xalq qalbidan chiqarib tashlay olmadi. Baxshilarning chekka-chukkalarda, toʻy-poʻylarda pana-panalab aytgan terma va dostonlari qoʻl yetmas minbarlardan yangragan safsatalardan koʻra odamlar qalbiga koʻproq kirib boraverdi. Tugʻilayotgan goʻdaklar bilan Alpomish, Goʻroʻgʻli, Kuntugʻmish ham qayta tugʻilaverdi.

Adabiyot baʼzi shoulardagi kabi odamlarga ermaklar ishlab chiqaradigan fabrika emas, balki tafakkurni harakatga keltiruvchi, inson qalbini quvvatlantiruvchi kuchdir. Shuning uchun ham xalq dostonlarini dunyoni zir titratgan imperiyalar ham yoʻqotolmaydi. Endi hamma gap maydonga kirib kelayotgan avlodlarda. Ular Alpomish va Goʻroʻgʻliday xalq qahramonlariga qalb eshiklarini ochishlari kerak. Avlodlar qalbida shunday qahramonlar yashasa, Vatan taqdiridan xavotirlanmasak ham boʻladi. Shu bois bugungi yoshlarga “Qalbingizda kimlar yashaydi?” degan savolni berib turmoq joizdir.

Zamon shitobi yashin tezligiga erisha ham, 100 yillik davr 10 daqiqaga joylanadigan holga borsa ham, hamma narsa qariydigan bu dunyoda Qaysin Quliyev aytganidani, faqat xalq hikmatlari qarimaydi. Albatta, dostonlarda mudom yashab kelayotgan xalq qahramonlari ham qarimaydi.

O‘Y



Roʻzimboy HASAN

Qiziq, oliygohlar talabalarga muta-xassisligi boʻyicha saboq beradimi yoki ularni tadbirbozlikka oʻrgatadimi? Bechora talaba yil boʻyi dars yuklamalarini oʻqigan, oʻzlashtirgan, zarur adabiyot-larni oʻrganish uchun kutubxonalarga qatnagan va barcha imtihonlardan “a lo” baho olgan. Davlat granti oʻrnini saqlab qolish, oilasiga ogʻirligi tushmasligi uchun jonini jabborga bergan. Bu yoqda esa... dars saboqlarini qoldirib (kutubxona qayda ekanini ham bilmay), kunda-kunora boʻlib turadigan tadbirlarga yasantusan qilganicha qatnaydigan boshqa talaba “faolligi uchun” kontraktdan davlat grantiga oʻtkazilgan.

...Yaqinda davlat idoralaridan birida tadbirga qatnashdik. Soat 11 da boshlangan tadbir bir yarim soatda yakunlandi va mehmonlarni bir piyola ch



Boshlanishi 1-sahifada.

Kuzda kunning issig'ida paxtazorda suv keltirilgan katta suvdan atrofiga to'plangan bolalar va qizlarning sabrsiz holatini tasavvur qiling...

Uyda gazeta va jurnallarga obunani o'zaro bo'lishib olardik. Bunday imkonni bizga daladagi "oq oltin dengiz" berardi. Keyinchalik ular qatoriga kutubxona kitoblari qo'shildi. Ular bilan tanishuv "Kuntug'mish" yo "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonidan boshlanganov...

Bu savolingiz bolalik degan ulkan bir olamning qapug'ini ochib yubordi. Uni hayotning ikki yoritqichi – Oila va Maktab quyoshi yog'dular bilan to'ldirib turardi. O'ylab qarasam, hayotdagi birinchi muallimlarim – bobom mulla Tifli, otam Kenja Jumanazarboy o'g'li, onam Mengsuluv mulla Tifli qizi ekan.

Uymiz uzoq yillar qishloqdagi eng zo'r darsxona bo'lganini ham bergan savolingizdan keyin tiniqroq anglayapman. Unda, ayniqsa, qahraton qish paytlari deyarli har kuni, xalq tilida aytganimda, "yetti yoshdan yetmish yoshgacha" kekxa-yu yosh yig'ilib, uyni liq to'ldirib "dars"da ishtirok etardi. Otamning yaqin qarindoshlari dongdor O'roq polvon, mashhur Eshmamat, O'roz va kekxa Raim chavandozlar, afsonaviy Ahmad va Alisher polvonlar to'y yo olishlarga kelsa, albatta, biznikiga qo'noqqa tushardi. Bu "darsxona"da kechgan voqealardan "Mahabxorat"dek yirik, ko'p qismli ajoyib film ishlasa bo'ladi. Bu lof emas.

Maktabda uy darsxonasi saboqlari ta'sirida matematika, fizika, kimyo, astronomiya darslarini ham adabiyotga aylantirib yuborardim. Raqamlar, tenglamalar, vorodod-u H₂O, qaltriroq gazlar-u boshqalari ham tirik mavjudotdagi harakatlanib, shuurimizni kengaytirardi. Bu hodisa muallimlar va o'quvchilarga ham yoqardi. Doston hikoya qilish va uning nazmiy matnlari ohangi menga otamdan ozroq o'tgan. Faqat, uyimizda dostonlar do'mbrasiz aytildir. Akam Yo'ldoshbek Kenja turli shoirlar va o'zining she'rlarini viqor bilan ovoz chiqarib o'qishini yoqtirardim, havasim kelardi.

Bu savolingizga baribir to'liq javob berishni uddalay olmas ekanman. Maktab haqida gapiray desam, qarshimda Qo'ziboy Eshmanov, Eshman To'rayev, Abdivoy Rahim, Meyli Do'sanov, Rahmat Jabborov, Musurmon Murodov, To'xta tog'a Bektemirov va yana bir qancha ustozlarning uzun safi paydo bo'lyapti. Domla Abdivoy Rahim adabiyotdan saboq berardi. U kishining alohida e'tibori tufayli 6-sinfirdayoq xalq og'zaki ijodidan mayda ertak, laparlarni to'plardim. "Yozi kal" dostonini uch kishidan yozib olgandim, 42 varaqlik qalin daftarning iktikasi to'ldi. Keyinchalik uning kitobini ham topdim. Yozib olganlarimdan farq qilardi.

Oila va maktab – xotirada avaylab-asraladigan Hayot. Ular umrning birinchi Bosh bekatlari, inson o'zligi sari xuddi shu yerdan yo'lga chiqadi.

– **Maktabdan keyin hozirgi O'zbekiston Milliy universitetining Sharqshunoslik fakultetida o'qigansiz-a? Bolalikdan badiiy ijodning ushufatasi bo'lganingiz holda, qanday qilib bu yo'nalishga kelib qoldingiz?**

– Maktabni tugatganimgin beshinchi yili edi, 1982-yilning kuzida Toshkentga keldim. Bir yilga yaqin Chkalov nomidagi uchqozsozlik korxonasida ishladim. Adashmasam, yuk tashuvchi ulkan "IL-76" uchog'ini ishlab chiqarardik. Bu davr ham o'zgacha sururi bo'ldi, osmon-u falaklarda parvoz qiladigan uchqoqlarni yasashda ishtirok etardim.

Oliy o'quv yurtlariga hujjat topshirish vaqti kelganda, o'sha vaqtdagi Toshkent davlat universitetiga bordim. Jurnalistika uchun maqolam kam edi, filologiyani mo'ljalladim. Qaynab toshgan izdohomga duch keldim. Ishli odam, boshqalardek kunlab kuta olmayman. Sharqshunoslikka o'tdim, u yerda ham navbat tirband edi. Bir payt: "Hind bo'limiga topshiradiganlar bormi?" deb so'rashdi. O'ylab-netib o'tirmay, birdan ichkariga kirdim va hujjatni oson topshirdim...

Balki o'shanda meni "Kalila va Dimna", Trael va Neston Drijon, Rabindranat Thakur yo Krishan Chandr chaqirgandir. Ular menga bolaligidan qadrdon edi-da. Aslida bu... oila va maktabdan chiqqan yo'lining davomi ekan. Meni boshqa bir olam kutib oldi va uning voqealari boshlandi. Bugun ham ular bilan birgaman, men qadim Turonni shu yerda topdim. Hindlar o'zlari bilmagan holda, hozirgacha Turonni madh qilib yurishlarini ko'rib, hayratlandim. Bu gaplarning davomi mavridi kelganda hikoya qilinadi.

O'qish davrida bizga ta'lim bergan Tamara Alimova, Zohidilla Komilov, Tohir Nazarov, Rustam Qosimov, Majid Hamidov, Telman Sattorov kabi ustozlardan cheksiz minnatdorman.

– **Tahsildan keyin, baribir, ijodiy sohalarda, gazeta-jurnallarda ishladingiz...**

– Toshkentda ayni o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish uchun kurashlar qizg'in tus olgan bir paytda, o'tgan asrning 80-yillarida tasodifan, biz uchun afsonaviy shoir Rauf Parfi bilan tanishib qoldim. Juda yaqin bo'lib ketdik. Oila va maktabda kitoblarda o'qigan bo'lsam, endi o'zbek adabiyotining o'zi bilan chinakam yuzlashgandim – "Abadiyat qonuni" tarjimoni Nizom Komil, rassom Isfandiyor Haydar, shoir Eshqobil Shukur,

yil naridagi shonli bobolar-u momolar huzurigacha olib bordi. Bu yo'ldan qanday chiqib ketay?

Bu... sadoqat bilan mehnat qilish emas. Odamday yashashga urinish. Tiriklik uchun havo qanday kerak bo'lsa, o'zlikni anglash ham yashash uchun shunday ehtiyojdir. Meni bu qutlug' dargohdan qo'yib yubormayotgan narsa shu bo'lsa kerak.

– **Qo'lyozmalarni qaysi tillar va imlolarda o'qiyisiz? Bugungacha taxminan qancha qo'lyozma bilan tanishgansiz?**



O'zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining katta ilmiy xodimi, adabiyotshunos va shoir Abdusattor JUMANAZAR:

“O‘ZIMGA YAQINLASHYAPMAN”

A'zam O'ktam, Aziz Nesinni o'zbekka aylantirgan Miad Hakim... bu qur to'xtovsiz kengayib boraverdi. Ularning hammasi o'sha davrning zabardast jadidlari, do'stlarim edi.

O'qishni tugatib, ish izlashimga hech hojat qolmadi. Bir kuni Rauf aka: "Ish qidirib yurmang, ana, Miad akaning oldiga boring", dedi. Shu tariqa, bolaligimda bizni gazeta-jurnallar bilan ta'minlab turgan matbuot eshigidan ichkariga qadam qo'ydim. Chet eldagi vatandoshlar uchun chop qilinadigan "Oydin" gazetasida ish boshladim. Hayotimning bu pallasida Dehlihdagi mashhur Chandichauk bozoriga kirib qolgandek bo'ldim.

O'zbek tiliga davlat tili maqomini berish uchun kechgan qizg'in kurashlar izidan mustaqillik gurunglari boshlanib ketdi. U ham uzoq kuttirmadi.

– **Uzoq yillardan buyon bir tashkilotda – O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida sadoqat bilan ishlash kelasiz. Sizni tarixga qanday qiziqish boshlab kelgan va bu yo'nalishda nima ushlab turadi?**

– 1998-yillar edi, asta-sekin matbuot bilan "chiqisha" olmay qoldik. Maqola yozish uchun bir nechta mashhur korxonaga kirib chiqdim. Boshliqlari birdan qochib ketardi. O'rinosarlaridan birotasi korxona yangilanishga urinayotgani, hozircha qozon, qoshiq, kosa, tog'ora, yelim obdasta, piyola singari mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgani, ishchilarning ko'pchiligiga o'zlarining hisobidan yarim yillik ta'til berilgani haqida xijolat bo'lib gapirishardi. Men ko'rayotgan hayot matbuotda yozilayotganlarga teskari edi. Hayotdagi haqiqiy ahvol yoki ilmiy yangiliklar haqida yozilganlarni matbuot qabul qilmay qo'ygandi.

Taqdir chizig'i bor ekan... Odatdagi-day, mamlakatda amalga oshirilayotgan taraqqiyotni qidirib yurgandim. Xuddi shu kunlari sharqshunos, bir nechta qo'lyozma asar tarjimoni bo'lgan domla Ismoil Bekjon bilan ko'rishib qoldik. Nima bilan mashg'ulligimni surishtirdi. Bilgach, jilmaydi va: "Falonchi, matbuot endi sening joying emas. U davrlar o'tib ketdi. Hozir shu yerda to'g'ri Sharqshunoslik institutiga bor, qo'lyozmalar kutib turibdi seni. O'ylik bermasa ham ishlayver. O'sha joy sening peshonangga yozilgan. Boshqa hech qayerga boshingni urib yurma", dedi. Aytganiday qildim.

Bu yerda meni 27 ming jildga yaqin qo'lyozma, 45 ming atrofida toshbosma, 10 mingdan ortiq tarixiy hujjat... kutib oldi. Men millatning haqiqiy ma'naviy xazinasi qilib qolgandim. Dunyodagi biror boylikni unga qiyoslab bo'lmaydi. Vatanning ko'p ming yillik yoshdagi Buxoro, Samarqand, Nasaf, Xiva, Kesh, Termiz... barcha qadimiy kentlari, bu tabarruk tuproqda kechgan ulug' voqealarga olib boradigan yo'l shu yerdan boshlanar ekan. Bu yo'l yurt haqida yozilgan, bizga o'qitilgan yolg'onlar changalzorini oralab, ulardan omon o'tishimga ko'maklashdi. Ruh ozodligini his qildiradi. O'n ming

– Qo'lyozmalarning deyarli barchasi arab imlosida turkiy, arabiy va forsiyda yozilgan. O'qiganlarim... qo'lyozmalar ro'yxati (kartoteka) nazarda tutilsa, o'qilmaganlari kam qolgan. Bir sidra ko'rib chiqqanman. Tez varaqlab o'qiganlarim – hujjatlarni ham qo'shsak, ikki-uch mingdan oshib ketadi. Shoshilmay o'qiganlarim mingdan ko'proqdir. Anig'ini ayta olmayman, taxminan shunday.

– **Bugungi kungacha "Xilvat ahli", "O'rgimchak kitobi", "Nasaf", "Mashrab", "Vaxshivor", "Buxoro ta'lim tizimi tarixi", "Yakkabog" (Sohibqiron kamol topgan yurt)", "Tug'li hikoyalar burji", "Samarqand ta'lim tizimi va madrasalari tarixi", "Qoratosh", "Bulung'ur" kabi yana bir qancha tarixiy, ilmiy-badiiy asarlaringiz, yuzdan oshiq ilmiy maqolalaringiz, turkum she'rlaringiz matbuotda e'lon qilingan. O'zim ham ularning aksariyatini o'qib, ijodiy bahramand bo'lganman. Siz haqigizda "bir institutning ishini qiladigan olim" degan ta'riflarni ham eshitganman. Bugun qanday izlanishlar bilan mashg'ulsiz?**

– Ilmiy izlanishlarni qay darajada uddalayapman, o'zimga baho berolmayman. Biroq ko'p narsaga ulgurmayotganimni bilaman. Odamning 30-60 yoshlari orasi – umrning gurkiragan, unda barcha imkoniyatlarning ochilgan davri ekan. Vujud charchoqni tan olmaydi, unga bo'ysunmaydi. Davlat, jamiyat bundan juda oqilona, ustomonlik bilan foydalanib qolishi kerak.

Siz ta'kidlagan kitoblarning ko'pchiligi oddiy sharoitlarda yozilgan. "Xilvat ahli" kitobi (monografiya) bir do'konning qorovulxonasida dunyoga kelgan. Tong otguncha yozuv uskunasi toshlari tinmay "shaq-shaq"lab chiqardi. U mening so'zlar ohangini qog'o'z sahifalariga joylovchi pianinam edi. O'sha paytlarda ayrim tanishlarim Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutida ishlayotganimga ishonmasdi. Ular uchun men qo'shimcha ishim – oddiy do'kon qorovuli edim. Bu ancha vaqtgacha davom etgan



UYG‘UNLIK EHTIYOJI

Boshlanishi 1-sahifada.

Aniqroq tasavvur hosil qilish uchun qulf va kalit timsolida tushuntiraman. Qulf (mezbon molekula) bu asosiy, murakkab molekula bo‘lib, maxsus bo‘shliqqa ega. Kalit (mehmon molekula) esa qulf bo‘shlig‘iga aynan mos keladi (mos kelmaganlari esa, tabiiyki, kirolmaydi). Ular o‘zaro birikadi, lekin mustahkam bog‘ hosil qilmaydi. Ammo qulflash yoki ochish vazifasini bajaraveradi.

Supramolekulyar moddalarda molekularlar o‘zaro vodorod bog‘lari, Van-der-Vaals kuchlari yoki koordinatsion bog‘lanishlar orqali birlashadi. Bunday tizimlar tabiatda ham keng tarqalgan: hujayra membranasi, oqsillar, nuklein kislotalar majmuasi va hokazo.

– Sizni dunyo kimyogarlari “Ibragimov qoidasi”ning asoschisi sifatida tanib, hurmat qilar ekan. Yigirmadan ziyod xorijlik olimlar tomonidan e‘tirof etilgan, dunyo bo‘ylab o‘nga yaqin darslikka kiritilgan qoida mohiyatini qisqacha tushuntirib bersangiz.

– Qoidani soddaroq tushuntirish qiyin, u polimorfizm hodisasi bilan bog‘liq. Polimorfizm bu, bir xil kimyoviy modda turli kristall tuzilishlarda mavjud bo‘lishi mumkin, degani.

Tadqiqotlarda aniqladikki, harorat o‘zgargan sari hosil bo‘ladigan polimorf modifikatsiyalar tarkibida “mezbon” va “mehmon” molekularlari o‘zaro har xil munosabatda bo‘ladi. Bu klatrat deb ataladigan moddalar turiga kiradi: ularda katta molekula (mezbon) ichiga boshqa, kichik molekularlar (mehmon) joylashadi. Harorat qanchalik yuqori bo‘lsa, mehmon molekulaning joylashish hajmi shunchalik kichik bo‘ladi. Mana shu qonuniyat keyinchalik ko‘plab amaliy ishlarda qo‘l keladigan qoida sifatida shakllandi. Albatta, buni chuqur tushuntirish uchun termodinamika, rentgen-struktura tahlili, kristallografiya kabi murakkab ilmiy yondashuvlarni qo‘llash kerak.

Endi, nima uchun bu “Ibragimov qoidasi” deb ataladi, degan savolga kelsak. Shu vaqtgacha o‘ttizga yaqin davlatda bo‘lib, turli konferensiyalarda ma‘ruza qildim. 2003-yili Avstraliyada gossipol nomli moddaning polimorf shakllari haqida ma‘ruza qilganimda, u yerdagi olimlar men ilgari surgan nazariyani shu modda uchun ham to‘liq mos kelishini tan olishdi. Shunda ular: “Bu holatni siz taklif qilgan qonuniyat bilan tushuntirish mumkin, uni “Ibragimov qoidasi” deb ataylik”, deya taklif qilishdi. Inglizchada “Rule developed by Ibragimov”, ya‘ni “Ibragimov tomonidan ishlab chiqilgan qoida” deb yuritila boshlandi.

Bugungi kunda ham bu qoida jahon ilmiy hamjamiyati tomonidan tan olingan yutuq sifatida qayd etiladi.

– Tarjimaiy holingizda har bir ilm ahli havas qilgulik natijalarni ko‘rish mumkin. Ya‘ni, Siz shu vaqtgacha uch yuzdan ortiq ilmiy ish, jumladan, o‘nta ixtiro muallifisiz. Bu ixtirolarning amaliyotda qo‘llanishi qanday kechmoqda?

– Amaliyotda keng foydalanilayotgan ixtirolarimizdan biri – toza gossipol olish usuli. Gossipol paxta chigitida uchraydigan bioaktiv, ammo zaharli modda; u juda kuchli biologik ta’sirga ega – kam miqdorida dori xususiyatlari bo‘lishi mumkin, lekin ko‘p miqdorda zahardir. Gossipolning tarixiy kashfiyoti qiziq: ba’zi Xitoy viloyatlarida ma‘lum davr mobaynida befarzandlik holati kuzatilgan va buning sababini tadqiq etganda paxta yog‘ining qayta ishlash

uslubidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq gossipol izlari topilgan. Shu sababli, gossipolning farmakologik imkoniyatlari o‘rganildi, ammo u nojo‘ya ta’sirlari tufayli keng qo‘llanilmaydi – hozir uning hosilalaridan va modifikatsiyalaridan foydalanish yo‘li izlanmoqda.

Bizning guruh bir necha patent olgan: 1980-yillarda Polsha, AQSH, Germaniya va Italiyada ro‘yxatlangan patentlarimiz bor. Ularning ichida gossipolni tozalashtirish usuli ham mavjud – bu usul hozirda ayrim ishlab chiqarish jarayonlarida qo‘llanmoqda.



Yana biri “Ibragimov qoidasi”dan kelib chiqadigan amaliy dasturlar. Ko‘plab farmatsevtik moddalar kristallanayotganda erituvchi molekularlari bilan solvat hosil qiladi. Erituvchi molekularlari doring tarkibiga kirsa, nojo‘ya ta’sirlar yuzaga kelishi mumkin, qoidamiz shu holatni bartaraf etish yo‘lini ko‘rsatadi. Erituvchining qaynash haroratiga yaqin sharoitda kristallanishini tashkil etish orqali noxush solvatlardan qutulish mumkin – bunday yondashuv hozir amaliyotda qo‘llanmoqda.

Shu bilan birga, dori moddalarning metall komplekslarini olish va ularni tekshirish ham amalda qo‘llanmoqda. Ko‘p dori moddalari (kislorod va azot atomlari mavjud bo‘lganlari) metall ionlari bilan koordinatsion birikmalar hosil qiladi, natijada kimyoviy va biologik xossalari o‘zgaradi. Ba’zi hollarda biologik faollik ortadi va nojo‘ya ta’sirlar kamayadi. Masalan, diklofenakning rux kompleksini olish orqali uning oshqozonni erituvchi (eroziyaviy) ta’siri sezilarli darajada kamaygani kuzatildi – bu amaliy sinovlarda ijobiy natija bermoqda. Hozirgi kunda yuzlab tabiiy va sintetik moddalar bilan metall komplekslari yaratib, ularning biologik xossasini tekshirish ishlari olib borilmoqda.

Umuman olganda, hozirgi tadqiqotlarimizning asosiy maqsadi – mavjud dori moddalarning xavfsizligini oshirish, ularning nojo‘ya ta’sirlarini kamaytirish va yangi, samarali kombinatsiyalarni amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

– Hazrat Navoiy “Naf‘ing agar xalqqa beshakdurur, Bilki, bu naf‘ o‘zingga ko‘prakdurur”, deb yozadi. Darhaqiqat, bugun ilm va mehnatingiz hosilasi o‘laroq, el-yurt hurmatiga sazovor bo‘ldingiz, yuzlab shogirdlarga ustozlik qilyapsiz. Davlatimizning “Mehnat shuhrati”, “Do‘stlik” ordenlari bilan taqdirlanginiz. Bu manzilga yetib kelguncha bosib o‘tgan yo‘lingizga nazar tashlasak.

– 1949-yil 11-mayda Toshkent shahrida, ishchi oilasida tug‘ilganman. Bolalikdan fizika va kimyo darslariga qiziqishim bo‘lakcha edi. Hatto, fizika bo‘yicha ikki marta sobiq ittifoq olimpiadasiga qatnashish imkoniga ega bo‘ldim. Maktabni oltin medal bilan tamomlagach,

Toshkent davlat universitetining fizika fakultetiga hujjat topshirdim.

U paytlar olimpiada g‘oliblariga bugungidek keng imtiyozlar va moddiy rag‘bat berilmasdi. Faqat oltin medalli abituriyent sifatida asosiy fan – fizikadan imtihon topshirganman. Imtihonda “tayyorlanmasdan javob beradiganlar bormi?” deb so‘rashganda, qo‘l ko‘tardim. Uchinchi savoldagi murakkab masalaga ko‘p o‘ylab o‘tirmay javob berdim. Domlalar hayron bo‘ldi-da, o‘zlari qog‘ozga yecha boshladi. Ancha vaqtdan keyin to‘g‘ri deb topishib, bu

masalani qayerdan o‘rganganimni so‘rashdi. Sinovga tayyorgarlik bosqichida ko‘zim tushganini, javobini eslab qolganimni aytdim. Qolgan savollarga o‘tmay imtihondan o‘tkazib yuborishdi.

O‘qishga kirgach, astoydil o‘qiy boshladim. Meni eng yuqori stipendiyaga tavsiya qilishdi – miqdori 100 so‘m (oddiy stipendiya 35 so‘m) edi.

Shu o‘rinda bir narsani aytib o‘tishim kerak. O‘sha paytda o‘zbekistonlik talabalarining Yevropa yo Amerika universitetlari tugul, hatto sobiq ittifoqdagi nufuzli oliy ta’lim dargohlariga borib o‘qishi ham ancha mushkul masala edi. Hozirgiday “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali TOP-50, TOP-100, TOP-300 ro‘yxatlaridagi universitetlarda davlat homiyiligi asosida o‘qishni orzu ham qila olmasdik.

Shunga qaramay, o‘zimni omadli talabalardan desam bo‘ladi. Oliy ta’limni to‘rtinchi bosqichdan Leningrad davlat universitetining fizika fakultetida davom ettirdim. U yerda “rentgen-struktur tahlili” degan yangi fanni o‘rgandim. Bu moddalarning ichki tuzilishini rentgen nurlari yordamida o‘rganish usuli ekan. Shu narsa keyingi faoliyatimga katta ta’sir ko‘rsatdi.

– Ko‘z oldingizda O‘zbekistonda ilm-fanga bo‘lgan munosabatning e‘llik yildan ortiq davri yastanib yotibdi. Asl holat qiyosda bilinadi. Bugungi kunda ilm-fanni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar Sizni qanoatlantiradimi?

– Men O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tizimida 21 yil faoliyat yuritdim: 14 yil bosh ilmiy kotib, 7 yil vitse-prezident sifatida. Afsuski, bir paytlar ayrim ilmiy institutlar yopilib, ayrimlari boshqa idoralarga qo‘shib yuborildi. Bir-biriga yaqin, biroq mustaqil fan tarmoqlariga oid ilmiy faoliyatni moliyalashtirish to‘xtatib qo‘yildi. Moddiy-texnik bazaning g‘aribligi orqasidan yoshlar fan bilan deyarli mashg‘ul bo‘lmay qo‘ydi. O‘rta yosh vakillari orasida boshlagan ilmiy ishlarni ro‘zg‘or g‘ami orqasidan tashlab ketganlar bo‘ldi. Ular orasida ilmiy salohiyati yuqori, istiqbolli porloq kadrlar yo‘q edi, deysizmi?

2017-yildan boshlab vaziyat o‘zgardi – yo‘qolgan institutlar tiklandi, yangilari tashkil etildi,

ilm-fanga, ilm ahliga e’tibor kuchaydi. So‘nggi yillarda olimlarga zarur asbob-uskunalar berildi, ularning xorijiy safarlarga chiqish imkoniyatlari kengaydi, eng muhimi, yoshlarni ilm-fanga jalb etish bo‘yicha tizimli islohotlar boshlandi. Sharoit yaxshilanib, maoshlar oshirildi. Bu ishlar ilmiy muhitni jonlantirdi. Shu bois, hozir Yangi O‘zbekiston ilm-fani ko‘plab iste’dodli yoshlar bilan boyimoqda.

Bu yo‘nalishdagi o‘zgarishlar samarasini kelajakda emas, shu yillarning o‘zida ko‘ra boshladik. Masalan, bizning natijalarimiz,

ya’ni tuzilishi aniqlangan yangi kristall birikmalarimiz, allaqachon Kembrijdagi xalqaro ma’lumotlar bazasida “o‘zbek olimlari” nomi bilan qayd etilmoqda. Bu – ilmiy sohada milliy g‘ururimizni ifoda etuvchi holat.

Ishonchim komil, O‘zbekiston ilm-fanining kelajagi porloq, yosh olimlar safi kengayadi va biz ularning yutuqlari bilan faxrlanib yuramiz.

– Asl ilm kishilari ter to‘kib, haqqoniy ravishda ilmiy daraja va unvonlarga erishayotgan bir paytda xususiy tashkilot ochib, odamlarga ma’lum pul evaziga “akademik”, “professor” rutbalarini tarqatayotganlar ham uchrab turadi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a’zosi sifatida bunga munosabatingiz qanday?

– Mamlakatimizda faqat ikkita muassasada – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va O‘zbekiston Respublikasi Badiiy akademiyasida akademiklar saylanadi. Boshqa tashkilotlarning guvohnomalari rasman akademiklik maqomini bermaydi, xalqaro va mahalliy ahamiyatga molik emas. Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar bergan guvohnomalardan odam o‘zini o‘zi xursand qilishda foydalanishi mumkin.

Fanlar akademiyasi haqiqiy a’zoligiga saylovlar 1995-yilda o‘tkazilgach, orada 22 yil tanaffus bo‘ldi. Ko‘p olimlarning yoshi ulg‘aydi, ayrim munosib ustozlar olamdan o‘tib ketdi, akademiklar safi yangi avlod vakillari bilan deyarli to‘ldirilmadi. Nihoyat, 2017-yil 29-dekabrda Prezident Shavkat Mirziyoyev “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a’zolarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonga imzo chekdi. Bundan maqsad iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda akademik ilm-fanning rolini kuchaytirish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilg‘or ilmiy yutuqlarni amaliyotga joriy etish, joylarda ilmiy maktablarni mustahkamlash hamda tegishli hududiy va tarmoq muammolarini hal qilishda ularning faol ishtirokini ta’minlash, iqtidorli yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, xalqaro miqyosda mamlakat ilm-fani nufuzini oshirishdan iborat edi.

Farmonda akademianing hay’ati va faoliyat ko‘rsatayotgan

</



OG'RIQ

“QARZ UZILAR...” DEMANG!

Qadimdan bugungacha to'y qilishdan asosiy maqsad – ikki yoshning oila qurganini el-yurtga ma'lum qilishdir. Qolgan gaplar har bir xalqning o'ziga xos urf-odatlar bilan bog'liq. Ammo hozirgi vaqtda “ommaviy madaniyat” ta'sirida urf va isrof aralashib ketgani achinarli.

Biz negadir rivojlangan davlatlar va jamiyat-larning ilm-fan yutuqlaridan emas, ularning o'zigagina xos bo'lgan madaniyatidan o'mak olamiz. To'ylar ham bundan mustasno emas. Kelin-kuyovlarimizga yevropacha libos kiydirdik. Keyin saf bo'lib vals tushish, dugonalarga gul

O'tsa to'y birla yoz-u qishimiz, Aylagay bizni yerg'a yakson to'y.

Shu nashrning 1915-yil 2-aprel sonidagi maqolada qo'qonlik ziyoli savdo ahllaridan ikki nafari – Hoji Mahmudxon va Mulla Yusufxon attor birgalikda 5-6 nafar odamni chaqirib, farzandlariga sunnat to'yi qilganlari bayon etiladi. Agar attorlik savdoning eng serdaromad turlaridan ekanini hisobga olsak, ularning tutumi pulni aql bilan topganidan darak bermoqda.

Har bir millat o'z kelajagi uchun o'zi qayg'urishi lozim. Shu bois, har bir inson, har bir oila va umumjamiyat birlashib, maqsadni yuksak olmasak, asosiy mablag'imizni ilmg'a



uloqtirish, mashinalar kortejini karvonday cho'zish kabi qiliqlarga berildik. Bu orada odamlarning havoyi havaslaridan – havodan pul ishlab olishni o'ylagan uddaburonlar har xil odatlarni to'y'larga olib kirib, ularni tashkil etish bahonasida “xususiy biznes”ini yo'lga qo'ydi. Qaysidir odat yoshlarga singmasa, darrov ijtimoiy tarmoqlarda chiroyli reklama qilib, miyasiga singdirdik. Xuddi ularsiz odam baxtsiz bo'lib qoladiganday tasavvur uyg'otdik. Qarabsizki, millionlab pul hech qachon hech kimga foyda bermaydigan ishlarga sovrulib turibdi. Xolbuki, hozircha hech kim pulni ko'chadan supurib olayotganini ko'rganimiz yo'q...

“Qarz uzilar, xotin yonga qolar”, “Shavla ketsa ketsin...” degan maqollarni o'zlaricha yo'yib, o'ta-onasining o'n yillab yiqqan-tergani yetmaganday, kredit olib to'y qilganlarning hayotidagi keyingi tomoshalar – fojialarni ko'rib, bu zamonga Shekspir ham kerak emas, deb o'ylab qolaman.

Yangi oila – yangi ro'zg'or degani. Uning o'ziga yarasha xarajatlari bo'ladi. Shu paytda kuyovto'raning topgani qaysi biriga yetadi? Oila qo'lida qolgan mablag'ga qanoat qiladimi? Odamlarning maqtoviga qorin to'yadimi?

Bu g'avg'olar jadid bobolarimizni ham qiynagan. Xususan, Abdulla Qodiriyning 1915-yilda “Sadoyi Turkiston” gazetasida e'lon qilingan to'y haqidagi she'rida shunday misralar bor:

**Besh kun to'yni so'ngidin
Ketibon mulklar bois fig'on to'y...**

sarflamasak, globallashuv davrida tobora tezlashib borayotgan fan-texnika taraqqiyoti poygasi-nda ortda qolib ketamiz. Agar insonning o'zi yashashdan maqsadini aniqlashtirib olmasa, ilming ortidan yurmasa va o'z manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashtira olmasa, rivojlanish mashaqqat bilan kechadi.

To'y bilan bog'liq azaliy muammolarga yechim topish maqsadida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston mahallalari uyushmasi, Din ishlari bo'yicha qo'mita, O'zbekiston musulmonlari idorasi, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, “Nuroni” jamg'armasi hamkorligida ishlab chiqilgan chora-tadbirlar dasturi o'z vaqtida qilingan xayrli tashabbus bo'ldi. Ushbu loyiha jamiyatda sog'lom ma'naviy muhitni mustahkamlash, ortiqcha isrofgarchilikning oldini olish va milliy qadriyatlarimizga asoslangan me'yoriy hayot tarzini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, ilmiy tahlillar, ijtimoiy so'rovnomalar natijalariga asoslangan. Belgilab olingan dolzarb 90 kunlikda yurtimiz bo'yab tizimli yondashuv asosida targ'ibot tadbirlari olib boriladi.

Ko'pchilik “eldan qolmay” deb ham o'zini isrofga urayotgan bir paytda jamiyatda maromiylk kayfiyatini shakllantirishda bu kabi tashabbuslar har jihatdan zarur.

**Shahlo AHROROVA,
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar
instituti ilmiy xodimi**

TARMOQLARDA NIMA GAP?



TASHABBUS ODATGA AYLANSA...

Shu kunlarda sahifamda eng ko'p aylangan xabar senator, taniqli adib va jurnalist Abdusaid Ko'chimovning o'zi tug'ilib-o'sgan Urgut tumanidagi Dehqonobod mahallasida kutubxona ochgani bo'ldi.

Bu xabarni o'qib Toshkent viloyatining olis Toshsoy qishlog'ida yashayotgan shoir Barot Isroilning bir necha yil avval o'z uyini kutubxonaga aylantirgani yodimga tushdi.

Ijodkorlar, olimlar, san'at arboblari, umuman, ziyolilar ko'p ming sonli kitob fondiga ega bo'ladi. Afsuski, ana shu bebaho xazina aksar hollarda egasining vafotidan keyin qarovsiz qolib, sochilib, yo'qolib ketadi. Hatto, katta olimlardan qolgan noyob asarlar jamlangan kutubxonalarning huzurini makulatura yig'ish shoxobchalari ko'rganini ham eshitganmiz.

Bunda kimnidir ayblash fikridan yiroqmiz. Hamma farzand ham o'ta-ona yo'lidan ketmaydi yoki uyidagi kitoblarni qiymatiga to'g'ri baho bera olmaydi. Ko'zi ochiq paytida kutubxonasini kimdadir berib yuborishga esa hammaning ham ko'zi qimaydi.

Shu nuqtada eng mo'tadil yo'l – kutubxona ochish yoki kutubxonaga topshirish. Ana shunda kitoblarni ham ishonchli bo'ladi, topshiruvchi ham istagan paytida foydalana oladi.

Tasavvur qiling-a, har bir olim va adib o'zi tug'ilgan yoki yashayotgan qishlog'i, mahallasi, ovulida

kutubxona tashkil qilsa. Ularning ismlari bino peshtoqiga yozib qo'yilsa! Nafaqat ziyolilar, balki qo'lida katta kitob fondiga ega bo'lgan har bir yurtdoshimiz shunday qilsa arziydi.

Hozir uy-muzey ochish urfdan qoldi. Lekin, masalan, G'aybulla as-Salom, Naim Karimov, Matnazar Abdulhakim, Oydin Hojiyevaning qishlog'ida ular nomidagi kutubxona ochilsa, ham xotira, ham xalqqa foyda bo'lmaydimi? Ustoz ijodkorlardan Muhammad Ali Bo'stonda, O'tkir Rahmat Toyloqda, Usmon Azim Boysunda, Kenesbay Karimov Chimboyda, Abdulla Sher Chinozda, Nurali Qobul Baxmalda o'z nomida kutubxona tashkil etish salohiyatiga ega, nazarimda.

Abdusaid Ko'chimovning tashabbusi akademiklar, professorlar, xalq shoirlari va yozuvchilari, xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimlari, san'at arboblari tomonidan davom ettirilsa, bu ishga hududiy hokimliklar, homiylar bosh qo'shsa, nur ustiga nur bo'lar edi.

Bugun ayrim yurtdoshlarimiz obro' olaman deb, to'y-tomoshga qilishyapti, kim o'zarga muqaddas shaharlarga safar qilishyapti. Holbuki, kutubxona ochish yoki unga hissa qo'shish masjid qurganining, madrasani obod qilganing, o'quv yurtlariga homiylk qilganing savobidan ortiq bo'lsa ortiqki, kam emas.

Shukur LATIF
Facebookdan

HAJV

Sattor SUROB

CHULI-CHULI

Qo'shtegirmon muzofotida bu so'z “hisobda yo'q”, “arzimas”, “mayda” ma'nolarini beradi.
Birarda nobakor zindalarga nisbatan ham ishlatiladi.

Bo'qog'ini qizartirsa g'uli-g'uli,
Huzurida bo'rdoqi g'oz chuli-chuli.

Vale o'shal g'oz janubga uchib bersa,
Tovusingiz qilgan parvoz chuli-chuli.

Ammo noshud tovu hirom qilgan palla,
Yaltillagan dakang xo'roz chuli-chuli.

Lekin sahar chog'i nola qilsa xo'roz,
Kanareyka bergan ovoz chuli-chuli.

Do'stlar, borchasifatlarini ipga tersam,
Kulsagulning qoshida boz chuli-chuli.

Gar vo'smani qiyshiq tortsa hamki yorim,
Botiks qilgan o'nta tannoz chuli-chuli.

Erib turgan chog'i chiroy bergan falak,
Salondagi falon pardoz chuli-chuli.

Lippa urib, supurguni ishga solsa,
Hindi kinodagi raqqos chuli-chuli.

Qovushtirsa bormi qoshin jahl birla
Vo'r zako'ning Saidvaqqos chuli-chuli.

Didi nozik ekan – mani tanladi yor,
Suqatoylar bo'ldi paqqos chuli-chuli.

Sattor Surob, ishsiz kesak eding, hayhot,
Kuchaygansan, emas taqqos chuli-chuli.

Shu yil aqrabning miyonasida kiril
alifbosida xushbaxt bitib qo'ydim.

TILBILIM

“Qarindosh” so'zi “Devonu lug'atit turk”da “bir qorindan tug'ilgan ikki bolaga nisbatan “qarindash” deya izohlangan. Ammo qadimgi turkiy obidalarda “qarindosh” ma'nosida ko'proq “qadash” so'zi uchraydi. Misol uchun Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asarida o'nlab marotaba hamma o'rnlarda “qadash” so'ziga duch kelamiz, faqat bir o'rinda, u ham bo'lsa muallif emas, ehtimol, kotib tomonidan yozilgan asarning nasriy muqaddimasida “qarindash” so'zi qo'llangan “qana'atqa O'zgu'rmish at berib, qarindashi teb aymish turur” – ma'nosi: “qanoat”ga [muallifi] “O'zgu'rmish” deb ot berib, qarindoshi deb aytgan”).

Buddaviylikka oid manba – “Oltin Yoruq”da bir epizod bor: uch shahzoda (tegin) o'rmondan yetti bola tug'ib ochlikdan o'layotgan ona yo'lbarsga duch kelishadi. Kichik shahzoda akalarga: “Sizlar boraveringlar, men sizlarga yetib olaman” deb ortda qoladi va ona yo'lbars hamda uning bolalarini ochlikdan qutqarish uchun o'zini qurbon qiladi. Akalar ham ukasini izlab ortga qaytishadi va o'sha och yo'lbars holsiz yotgan joyda kichik shahzodaning daraxtga ilingan kiyimlari, yerda sochilib yotgan suyak, soch qoldiqlari, qon izlarini ko'rib, faryod ko'tarib, nola qilishadi: “...o'go'ka qangqa savitmish artih qadash-a...”, – ma'nosi: “onamizga, otamizga sevikli eding ukamiz-a...”.

Xo'sh, “qadash” so'zi qanday etimologiyaga ega? Mahmud Koshg'ariy “Devon”da uni shunday tushuntirgan:

